

KIRISH.....	2
I BOB. O‘zbek tilshunosligida morfologiya bo‘limining o‘rganilishi.	
1.1. Tilshunoslikda morfologiya bo‘limining tadqiqi masalalalari.....	14
1.2. O‘zbek tilshunoslarning grammatik kategoriyalarga doir nazariy qarashlari	21
II BOB. Ta’lim bosqichlarida morfologiya bo‘limining o‘rganilishi.....	
2.1.Umumta’lim maktablari hamda akademik litsey darsliklarida morfologik vositalarning morfologik vositalarning berilishi.....	27
2.2.O‘quvchilarda morfologik tahlilni o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar (o‘yin-topshiriqlar) tizimi.....	32
III BOB. Ishning amaliyotga tatbiqi.....	
3.1. Tajriba - sinov materiallari.....	52
3.2.Ochiq dars ishlanmasi.....	53
UMUMIY XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.....	61
O‘ZBEKCHA–INGLIZCHA TAYANCH SO‘ZLAR LUG’ATI.....	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. O‘zbekiston Respublikasi bиринчи Президенти I.Karimov insoniyatning eng yuksak boyligi bo‘lgan ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni batafsил yoritilgan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni shakllantiruvchi omillardan biri ona tilimizga ehtirom va uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini hamda nufuzini ko‘tarish, yuksaltirish ekanligini alohida qayd etdilar. Darhaqiqat, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy–ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”¹.

Prezidentimiz ushbu asarlarida millat ma’naviyatini yanada yuksaltirish uchun “biz ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarurligini”² ta’kidlab, bu borada filologlar zimmasiga juda katta mas’uliyat yukladilar. Bugungi o‘zbek tilshunosligi mazkur vazifa ijrosini ta’minalash yo‘lidan bormoqda, desak yanglishmaymiz.

Tilning ijtimoiy mohiyati nutqiy muloqot muhitida o‘z aksini topadi. Nutqiy muloqot va faoliyat keng qamrovli hodisa bo‘lib, unda tilning yaratuvchanlik, ijodkorlik imkoniyati to‘la namoyon bo‘ladi. Bu imkoniyat nutqiy muloqot faoliyatining mahsuli bo‘lgan matnda o‘z aksini topadi.

Har bir davр fan oldiga turli muammolarni qо‘yadi. Birinchi yurtboshimiz bu haqida quyidagilarni yozadi: “Biz ajdoddlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boyliklarning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy izlanishimiz zarur. Ayniqsa , fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalar va ona tilimizning qо‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug’atlar nashr etish, zarurat va iboralar, tushuncha va

¹ Karimov A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 83-b.

² O’sha asar. 87- b.

kategoriyalar ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz”³. O‘zbek tilining grammatik qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirsakkina, biz yuqoridagi bebahohazinaning saqlanishiga xizmat qilgan bo‘lamiz.

Bugungi kunda umumta’lim maktablari hamda akademik-litsey ta’lim bosqichlarida morfologiya va morfologik vositalarni o‘quvchilar qay darajada o‘rganmoqda? mazkur mavzu yuzasidan ularda qanday tasavvurlar paydo bo‘lmoqda ? Ayni shunday muammolarni yoritish hamda ta’lim oluvchilarga kerakli ko‘rsatma va metodik tavsiyalarni berish bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining ahamiyati va dolzarbligini ta’minlaydi .

Mavzuning o‘rganilishi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq yurtimizning birinchi Prezidenti yoshlar tarbiyasiga, ta’lim va tarbiya sohasiga, ularning ma’naviy-ma’rifiy kamolotiga katta e’tibor qaratdi. Ayniqsa, 1997-yil 29-avgustda “Ta’lim to‘g‘risida”⁴ va “Kadrlar tayyorlash milliy dastiri”⁵ kabi qonunlarning qabul qilindi. Bu esa ta’lim sohasini rivojlantirish uchun qo‘yilgan katta qadam edi. Ushbu islohotlarning amaldagi isboti sifatida 1993-yil 15-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “O‘zbek maktablarida ona tilini o‘qitish konsepsiysi”ning ishlab chiqildi. Bu esa o‘rta umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o‘tilayotgan fanlardan bugungi kunda ta’lim-tarbiyaning o‘zagini tashkil etuvchi Davlat ta’lim standartlari⁶ning yaratilishiga asos bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida morfologiyaning alohida tadqiq etilishi uzoq tarixga ega. Xususan, so‘z turkumlarini tasnif qilish , morfologik sathlarni belgilash,

³Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, b 87.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конуни. Таълим тўғрисида. Меъёрий-хукуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004

⁵ Ўзбекистон Республикасининг Конуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Меъёрий-хукуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004.

⁶ Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv darsturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili(5-9-sinflar). – T.: 2010.

morfologik kategoriyalarga ajratish borasidagi tilshunos olimlarning izlanishlari natijasi besamar ketmadi. XX asr o‘zbek tilshunoslida Sh.Raxmatullayev, R.Sayfullayeva, A.Hojiyev A.Nurmonovlarning ayni shu sohadagi izlanishlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur mavzuga R. Xadyatullaev, A. Po‘latov, O. Safarov⁷, SH. Kazakov, Q. Musaev, E.Qilichev⁸ kabi olimlarning ishlarida e’tibor qaratilgan. J.Bo‘ronov, O. Mo‘minov, M. Rasulova, R. Qo‘ng‘urov⁹ va boshqa olimlar erkalash va kichraytirishni grammatik kategoriya sifatida tadqiq etib, ularni asosan suffikslar orqali yasalishi haqida to‘xtalib o‘tadilar. G‘.Abdurahmonov , Sh.Shukurov “O‘zbek tilining tarixiy grmmatikasi”, “Otlarda kichraytirish va erkalash formalari” nomli kitoblarida bitiruv malakaviy ishimizga doir nazariy masalalar berib o‘tilgan¹⁰.

Ishning maqsad va vazifalari. Morfologik sath birliklarini o‘rganish borasida turli tilshunoslarning ilmiy asarlarini qiyosan o‘rganish va ular asnosida o‘zimizning shaxsiy metodik tavsiyamiz , xulosamizni bildirish , o‘rta va umumta’lim bosqich maktab o‘quvchilarida ushbu mavzuga oid bilimlarni aniqlash,ularda kerakli ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirish bitiruv malakaviy ishimizdan ko‘zlangan asosiy maqsaddir.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- Morfologiya bo‘limining o‘zbek tilshunoslida o‘rganilishini ilmiy asoslash;
- Morfologik kategoriylar va ularning tasniflari haqida chuqr bilimga ega bo‘lish;
- Morfologik tahlil yuzasidan kerakli bilimlarga ega bo‘lish

⁷Сафаров О. Болаларни эркаловчи кўшиқ. – Т.: Фан, 1983. – Б. 3-65.

⁸Киличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 21-140.

⁹ Кўнгурорв Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1980. – Б. 44-134.

¹⁰ Abdurahmonov G‘.,Shukurov sh. O‘zbek tilining tarixiy grammaticasi. Toshkent, 1973.

- Dastur va darsliklarni tahlil qilish, o‘rganish va ularni o‘zaro qiyoslash;
- So‘z turkumlarining morfologik xususiyatlarini aniqlash va misollar vositasida dalillash ;

Nazariy va metodik adabiyotlardan mavzuga doir ma’lumotlarni to‘plash, umumta’lim maktablari va akademik litsey “Ona tili va adabiyot” fani bo‘yicha dastur va darsligini mavzu bo‘yicha tahlil qilish, ona tili darslarida morfologik tahlil bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni yechishga doir metodik yo‘riqnomalar ishlab chiqish ,kasbga yo‘naltirib o‘qitish mazmunini yoritish, usul va vositalarini aniqlash, shu jarayonda foydalilaniladigan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ona tilini o‘qitish sohasiga salmoqli hissa qo‘sghan M.Asqarova, A.G’ulomov, Y.Abdullaev, K.Qosimova, A.Po‘latov, A.Mirzaev, O.Roziqov, A.Sayfullaev, O.Yoqubjonova, N.Shukrullayev, R.Abdulahatova, B.Abduraimova, R.Qayumova, T.G‘aniyev, Sh.Yusupova, N.Sattorova, T. Yusupova, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, M.Saidov, kabi metodist olimlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo’llanmalari, ilmiy maqolalarida uzlucksiz ta’lim tizimi bosqichlarida ona tilini o‘qitish yuzasidan yo‘liyo‘riqlar bayon qilingan. Mazkur ishlardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo’llanilmoqda. Jumladan, o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanida morfologiya hamda morfologik vositalarni o‘rganish masalalari metodist olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular tomonidan yaratilgan dissertatsiyalarda, monografiyalarda, o‘quv-uslubiy qo’llanma va tavsiyalarda, davriy nashrlarda chop etilgan maqola va tezislarda bu masalaga juda ko‘p marotaba qo‘l urilgan. Ularni o‘rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu bo‘lim mavzularini o‘qitish masalasiga nafaqat bugungi kunda, balki uzoq davrlardan buyon dolzarb mavzu sifatida e’tibor qaratilib kelinayotganligini guvohi bo‘lamiz, chunki bu bo‘limni o‘rganishda grammatik bilim berishgina emas, balki tilimizning so‘z boyliklari orqali

o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ularda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin va ravon bayon qila olish malakalarini shakllantirish muammolari birinchi planga chiqadi. Ana shunday mazmundagi ishlarga Sh.Yusupovaning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)” mavzusidagi nomzodlik¹¹ va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”¹² mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadovalarning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasini,¹³ M.Saidovning “O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi”gi nomzodlik dissertatsiyasini¹⁴, M.Omilxonova, Y.Abdullahov, R.Abdulahatova, R.Inog‘omova, A.Orifjonovlarning “5- va 6-sinf-da ona tili darslari” metodik qo‘llanmasini,¹⁵ T.Mirzaqulovning “Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari” kitobini,¹⁶ T.Ziyodovning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini,¹⁷ A.Bobomurodovning “Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini¹⁸ asos sifatida keltirish mumkin.

Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ona tili darslarining samaradorligi masalasi tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlardan biri bu

¹¹ Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самардорлигини оширишда илғор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъянавий усуллар ва компьутердан ойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

¹² Юсупова Ш.Ж. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. – Тошкент, 2005. – 270 б; дисс. автореферати. – 44 б.

¹³ Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси (ўкув кўлланма). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 174 б.

¹⁴ Сайдов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўкув топшириқлари ва ulardan fойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 128 б.

¹⁵ Омилхонова М., Абдуллаев Й., Абдулаҳатова Р., Иноғомова Р., Орифжонов А. 5- ва 6-синфда она тили дарслари (методик кўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 262 б.

¹⁶ Мирзакулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 56 б.

¹⁷ Зиёдова Т.У. Она тили таълими жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. фан.номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.

¹⁸ Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш: Пед. фан. номз. ... ёзилган дисс. – Тошкент, 1996. – 146 б.

Sh.Yusupovaning “Ona tili ta’limi samaradorligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish (noan’anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)”¹⁹ nomli nomzodlik dissertatsiyasi hisoblanadi. Ishda “Aqliy hujum” metodidan, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘tilgan darslardan namunalar va ularni tashkil qilish yo‘l-yo‘riqlari bayon qilingan.

Sh.Yusupovaning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari”²⁰ nomli doktorlik dissertatsiyasida ham dars samaradorligini oshirish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy pedagogik texnologiyaning mazmuni yoshlarga falsafiy fikrlashga o‘rgatish, ularda bilishga qiziqish uyg‘otish, motivatsiya hosil qilish, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlashga emas, balki amaliyotda o‘rgatish, nostandard tafakkur qilish, rang-barang fikrlar berishga odatlantirish emas, uni ta’limga tatbiq etish dolzarb vazifa ekanligini ta’kidlaydi. Metodist o‘z ishida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda “Aqliy hujum”, “Bu bizniki” metodlarini qo‘llash yaxshi samara berishini olib borgan tajriba-sinov ishlari natijalari bilan izohlaydi.

Ona tili darslarini qiziqarli tashkil etishning eng qulay yo‘llaridan biri o‘yin darslaridir. Ona tili darslarida o‘yin turlaridan foydalanish masalasi metodist A.Bobomurodovaning dissertatsion ishida tahlil etilgan.²¹ U o‘z ishida ona tilining har bir bo‘limini o‘rganishda qaysi tildagi va turdagи ta’limiy (didaktik) o‘yin-topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi va buning yo‘llarini ko‘rsatgan. O‘yin usulida darsni yoki darsning ma’lum bir bosqichini tashkil etish, albatta, o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularni hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga undaydigan ta’lim usuli hisoblanadi. A.Bobomurodova ona tilidan o‘quvchilarga beriladigan o‘yin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra uch turga ajratar ekan,

¹⁹. Юсупова Ш.Ж. Она тили таълими самарадорлигини оширишда илгор педагогик технологияларни жорий этиш (ноанъянавий усуллар ва компьютердан фойдаланиш): Пед. фан.номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – 26 б.

²⁰. Юсупова Ш.Ж. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўкувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари: Пед. фан.доктори ... дисс. автореферати. – Т., 2005. – 44 б.

²¹. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топишмоқлардан фойдаланиш. - Пед. фан.номзоди ... ёзилган дисс. – Т., 1996. – 8-бет.

birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlarni kiritadi. Faqat ushbu o‘yinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: «Qayta xotiralashga asoslangan o‘yin-topshiriqlar o‘quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo‘llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o‘yin-topshiriqlarni bajarish o‘quvchiga katta murakkablik tug‘dirmaydi, oldin o‘rganilgan mavzular va muayyan bilimga ega bo‘lgan o‘quvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin»²². Albatta, topshiriqlarni bemalol bajarish uchun bilim, ko‘nikma va malakalar yaxshi egallangan bo‘lishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchi o‘zi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida o‘ylashi, biror yo‘l bilan o‘qib olishi, sinfdoshlaridan eshitib bo‘lsa ham, bila borishi darkor.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot ishi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish” fakulteti “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasining “2017-2018-yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqlol rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti. Ta’lim bosqichlari ona tili darslarining morfologik vositalarini o‘qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Ta’lim bosqichlari ona tili darslarining so‘z turkumi va morfologik shakllarini o‘qitish jarayoniga xos ta’lim shakli, vositalari, mazmuni va metodlarining talqini.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va asarlari,O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, o‘zbek maktablarida ona tili ta’limi Konsepsiysi, “Ona tili” DTSi, taniqli psixolog, filolog, pedagog va metodist olimlarning ona tili ta’limining mazmunini yangilash,

²². Юқорида номи кўрсатилган адабиёт. – 8-бет.

uni o‘qitishning samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi ilmiy-metodik asarlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ishda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda umumiy pedagogika hamda xususiy metodika sohasida mavjud qarashlar asosida ta’lim bosqichlari ona tili darslarida morfologik kategoriyalarni o‘qitish metodikasi tadqiq qilindi. Bunda:

- Ta’lim bosqichlarida so‘z turkumining o‘rganilishi masalasiga oid qilingan tadqiqot ishlari va metodik qo‘llanmalarga munosabat bildirildi.
- Ta’lim bosqichlarida so‘z turkumlari hamda morfologik shakllar o‘rganishining hozirgi holati o‘rganildi.
- Mavjud dastur va darsliklar shu nuqtayi nazar bilan tahlil qilindi.
- Ta’lim bosqichlarida morfologik vositalarni o‘rganish bilan bog‘liq ishlarga qo‘yiladigan asosiy talablar belgilandi.
- Ta’lim bosqichlarida mustaqil so‘z turkumini o‘rganish bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish metodikasi yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati ta’lim bosqichlari ona tili ta’limida nafaqat morfologik vositalar ,balki morfologiya bo‘limini o‘rganish holatini aniqlashda hamda uni o‘qitishning nisbatan qulayroq shakl va usullarini tavsiya etishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari mustaqil so‘z turkumlarini o‘qitish masalalariga oydinlik kiritadi, uni o‘rganishda va ta’lim bosqichlarida qo‘llashda manba bo‘la oladi. Ta’lim bosqichlari ona tili ta’limida morfologik kategoriyalarni o‘qitishda ishlab chiqilgan mashqlar tizimi amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy qilinishi. BMI Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakultetining “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasini yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa, umumiy xulosalar va tavsiyalar, BMIda qo‘llangan atamalarning

o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiyligi 68 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O‘zbek tilshunosligida morfologiya bo‘limining o‘rganilishi.

1.1.Tilshunoslikda morfologiya bo‘limi va morfologik kategoriyalarning tadqiqi masalalalari

Bugungi zamonaviy texnologiyalar asri shiddat bilan rivojlanar ekan, har bir sohadan yangilikni, novatorlikni talab qiladi. Mustaqillik bizga ulkan imkoniyatlар kalitini tuhfa qildi. Xususan, fan va ta’lim sohasida bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berdi . Tilshunos olimlarimiz tomonidan o‘zbek tilshunosligi nazariyasi oldida turgan muammolar hal qilinishga kirishildi . Shu qatori barkamol avlodga ta’lim –tarbiya berishdek mas’uliyatli ishga yondashildi ,ya’ni birinchi navbatda, maktab darsliklari yaratildi, o‘qitishning zamonaviy texnologiya va metodikasi ishlab chiqildi .

O‘zbek tilshunosligi tarixi uzoq davrlarni qamrab oladi. Bu davrlar mobaynida tilshunoslikning bir qancha nazariyalari va bo‘limlari paydo bo‘ldi. Shu qatori , morfemika va morfologiya bo‘limiga oid muammolar o‘z yechimini topdi . Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobini morfologiya bo‘limi bog’liq holda morfologik kategoriyalar haqidagi tilshunos olimlarning nazariy masala va muammolarini qayd etib o‘tmoqchimiz .

So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratgan edilar.

Hindlarning tilshunoslik g’oyalari bilan oziqlangan arablar so‘zlarni uchga: ismlar, fe’llar, yordamchilarga bo‘ladilar.

Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so‘zlarni ana shunday uchga ajratadi. Faqat keyinchalik yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar.

G’arb tilshunoslida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an’anaga amal qilib, mustaqil so‘zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to‘rtta so‘z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi, (sifat), miqdorning

nomi (son), nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so‘zlar nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda *ismlar* nomi bilan o‘rganib kelganlar.

Biror so‘roqqa javob bo‘lib, ko‘pincha atash ma’nosini bildiruvchi, gapda ma’lum bir gap bo‘lagi yoki undalma vazifasida keladigan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi. So‘roqqa javob bo‘lmaydigan, atash ma’nosini bildir-maydigan so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi²³.

Tilning tovush tuzilishi fonetika bo‘limida, harflar tizimi esa grafika bo‘limida o‘rganiladi. So‘z va uning ma’nolari leksikologiya bo‘limida, so‘z turkumlari morfologiya bo‘limida, gap va gapda so‘zlarning bog’lanishi sintaksis bo‘limida o‘rganiladi. Shunday qilib, tilshunoslik fonetika (grafika), leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo‘limlarining uzviy bog ‘liqligidan iboratdir.

Bu so‘z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki son, olmoshlar, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so‘zlarg ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so‘zlarni boshqa so‘zlarg tobelantirib bog’lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo‘sishchalar bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni *ismlar atamasi* ostida birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘z turkumlarining morfologik belgisi yoki morfologik xususiyati deganda, u yoki bu so‘zga xos bo‘lgan grammatik kategoriylar, mazkur so‘zlarga xos forma yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi affiksal morfemalar tushuniladi (forma yasovchi-so‘z formalarini hosil qiluvchilar -lar, so‘z o‘zgartiruvchi-forma yasovchilarining sintaktik munosabat ifodalaydigan turi tushiniladi, kelishik affikslari, shaxs-son affikslari. Masalan, *qizil*, *katta*, *ishlamoq*, *etmoq*, *uy*, *daraxt* so‘zlarini olamiz va ularga quyidagi qo‘sishchalarini qo‘shib ko‘ramiz:

²³ Nurmonov A, Mahmudov N.Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik.T:Tasvir,2013.

- *roq*;
- *di, -i(b)*;
- *gan*;

So‘zlarning gapda boshqa so‘zlar bilan birika olish imkoniyati ham sintaktik belgi hisoblanadi. Bunda semantik belgi asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, *predmet, narsa-belgi-sifat--harakat-fe'l* singari. Ana shularga qarab so‘zlar turkumlarga ajratiladi.

Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos yasovchilari bor.

So‘z turkumlarining yuqorida qayd etilgan kategorial belgilari so‘z turkumlari nazariyasining birinchi prinsiplarini tashkil qiladi. Misollar: rus tilida semantik belgi bilan bir qatorda morfologik belgi ham yetakchidir. Xitoy tillari oilasiga kiruvchi tillarda, masalan, xitoy, vietnam tillarida affikslar yo‘q. O‘zbek tilida morfologik va semantik belgilardan keyin sintaktik belgilar hisobga olinadi.

So‘z turkumi termini bir vaqtlar lug‘at boyligidagi bir qatlamni – leksik birliklarni hisobga olib tuzilgan; keyinchalik lug‘at boyligida ikkinchi bir qatlam – frazeologik birliklar ham mavjudligi tan olindi, turkumlanish leksik birliklarga gina emas, frazeologik birliklarga ham mansubligi aniqlandi.

Demak, lug‘at boyligini bir butun holda olib *so‘z turkumlari* terminini ishlatib bo‘lmaydi, endilikda bu termin tarkibidagi *so‘z* qismi voqelikni to‘g‘ri atamaydigan bo‘lib qoldi. Shuning uchun bu tushunchani *lug‘at birliklarining turkumlanishi* termini bilan anglatish to‘g‘riroq. Lug‘at birliklari dastlab lug‘aviy birliklarga va grammatik birliklarga ajratiladi, lug‘aviy birliklar o‘z navbatida leksik birliklar va frazeologik birliklar deb guruhanadi; leksik birliklar o‘z doirasida, frazeologik birliklar o‘z doirasida turkumlarga ajratiladi.

So‘z turkumlari — so‘zlarning ma’nosи va grammatik xususiyatlari ko‘ra turlarga bo‘linishidir. 1. Mustaqil so‘z turkumlari: *ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish*. 2. Yordamchi so‘z turkumlari: *bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalardir*. 3. Modal so‘zlar. 4. Undovlar. 5. Taqlid so‘zlar.

O‘zbek tilshunosligida morfologik vositalarning o‘rganilishi va uning so‘z turkumlari tizimida tutgan o‘rni, tarixiy shakllari, ularning o‘ziga xos

xususiyatlari, tabiat, badiiy matnlarda uchrashi ayrim maqolalarda ham o‘z ifodasini topgan. M.Asqarova, S.Ibrohimov, G‘.Karimov, S.Muhamedov, M.Temirova, B.Ubaydullayev, U.Sharipova, Q. Mahmudov, H.Hojiyeva, D.Hakimova kabi tilshunoslarning maqolalari shular jumlasidandir.

Fe'l — ish-harakat, holat ifodalovchi so‘z turkumi fe'ldir: *yozdi, o'qidi, o'yladi*. O‘timli fe'l — ish-harakatni biror obyektga o‘tishini ifodalaydi: *ko 'rdi, topdi, qo 'ydi*. O‘timsiz fe'l — ish-harakat biror obyektga o‘tmasligini ifdalaydi: *keldi, yurdi, yuvindi*.

Fe'l darajalari (nisbatlari) — ish-harakatning subyektga yoki obyektga munosabatini ifodalaydi: *yuvindi (o 'zlik), yozildi (majhul), yozdirdi (orttirma), yozishdi (birgalik)*.

Fe'l mayllari. Buyruq mayli harakatni bajarishga buyruq, istak ma'nolarini ifodalaydi: *yoz, kel, boray, keling*. Shart mayli harakatni bajarishda shart bo‘lgan holatni ifodalaydi: *kelsa, bo'lsa*.

Zamon qo'shimchalari — ish-harakat, voqe, hodisaning ma'lum bir paytda ro‘y berishini ifodalaydi. O‘tgan zamon — ish-harakatning o‘tgan zamonda ro‘y berishini ko‘rsatadi: *o'qidi, o'qigan, o'qilgan edi, o'qib edi, o'qibdi*. Hozirgi zamon — ish-harakatning hozir ro‘y berishini ko‘rsatadi: *o'qiyapman, yozayotir, ko'rinyapti*. Kelasi zamon — ish-harakatning kelgusida ro‘y berishini ko‘rsatadi: *kelaman, borarsan, borajak, borgusi, kelmoqchi*.

Harakat nomi. Ish-harakatning nomini ko‘rsatadi: *yozmoq, kelish, boruv*.

Olmosh. Turli so‘z turkumlari o‘rnida almashib keladigan so‘z turkumidir. Kishilik olmoshi shaxslar, narsalar o‘rnida qo‘llanadi: *men, sen, u, biz*. Ko‘rsatish olmoshi shaxs, narsa yoki belgilar o‘rnida qo‘llanadi: *bu, shu, o'sha*. O‘zlik olmoshi shaxsni ajratib, kuchaytirib ifodalaydi: *o'zimiz*. So‘roq olmoshi shaxs, narsa, belgilarni so‘rash uchun qo‘llanadi: *kim, nima, qancha, qanday*. Egalik olmoshi shaxs, narsalarning qarashliligini ko‘rsatadi: *meniki, uniki, bizniki* kabi. Belgilash olmoshi shaxs, narsa va belgilarni umumlashtirib ko‘rsatadi: *hamma, har qanday, harqachon, barcha, bari*. Guman olmoshi shaxs, narsa va belgilarga

ishora qiladi: *allakim, allaqaysi, kimdir*. Bo‘lishsizlik olmoshi shaxs, narsa, belgini inkor qiladi: *hech kim, hech qanday* va b.

Shu o‘rinda yana bir narsani aytib o‘tish kerakki, arab tilshunosligida olmosh alohida so‘z turkumida berilmagan, balki har bir so‘z turkumi ichida “yashirin ma’noli so‘z”, zamirlar sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Masalan, kitob, daftar aniq ma’noli ot bo‘lsa, men, sen, kim yashirin ma’noli ot (zamir ot)dir. Yoki oq, qizil, chiroyli ma’lum ma’noli sifat hisoblansa, bunday, shunday, kabilar “zamir sifat”dir²⁴.

Olmoshlarning qo‘llanishi bir tomondan, ularning tilda turmush talabi bilan kelib chiqqan so‘zlar ekanini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, tilda muhim o‘rni, o‘ziga xos xususiyati borligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham olmoshlarning kelib chiqishi qadimiy sanaladi²⁵.

Ot — shaxs va predmet tushunchasini ifodalovchi so‘z turkumi. *Karim, kitob, sevgi*. **Otlarning ma’no turlari:** 1.Atoqli otlar: shaxs, joy, tarixiy voqeа, asarlar, astronomik nomlar, atab qo‘yilgan nomlar: *Shohista, Toshkent, Navro‘z bayrami, “Kecha va kunduz” romani, Cho‘lpon yulduzi, Arslon*. 2.Turdosh otlar : bir turdagи narsa va hodisalarning umumiy nomi: *kitob, daftar, daraxt, shahar Erkalatish, suyish* ma’nolari **-gina, -kina, -qina** qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: *Tentakkinangiz savlatlikkina yigit bo‘lib qaytdi-ya, sallotlikdan. (Gl. G’.)*

Erkalatish ma’nosи ayrim atoqli ot, hayvon, o‘simplik nom-lariga egalik qo‘shimchasini qo‘shish bilan ham ifodalanadi: *Kechir, arslonim, hoziruyingga bormoqchi edim. (O.) Oyqizginam, sen-bilan maslahatlashadigan ishlarim ko‘payib ketdi. (Sh. R.) Kelinglar, qizaloqlarim, gullolalarim, o‘tiringlar. (O.) Ba’zan **-jon** va **-xon** qo‘shimchalari ham mazmunga qarab erkalatish, suyish ma’nosini anglatadi: *Yulduzzon, sent izlab yurgan edim, tasadduq!* (O. Y.)*

²⁴SayfullayevaR.R., MengliyevB.R., BoqiyevaG.H., QurbonovaM.M., YunusovaZ.Q., AbuzalovaM.Q. Hozirgi‘zbekadabiytili. O‘quvqo‘llanma. - Toshkent: O‘zMUNashri, 2007. -380 b.

²⁵RahmatullayevSh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. -464 b.

Kichraytish ma’nosi **-cha, -chak, -choq** qo’shimchalari orqali ifodalanadi: *So ‘ylagil, eykelinchak, buncha chopasan, nega? (H. O.) Jajji karavotcha olib keldi. (R. F.)*

Bu qo’shimchalar erkalatish, suyish ma’nosida ham ! qo’llanadi: *Baxtingdan o’rgulay, do‘ndiqchalar, tuf-tuf, ko‘z tegmasin... (R. F.)*

Kichraytish qo’shimchalari otlarga (*likopcha, belku-rakcha*), erkalatish qo’shimchalari ot va sifatlarga qo’shib keladi: *onaginam, oppoqqinam, suyuklikkinam, chiroylikkina qiz ekan.*

Ravish. Ish-harakatning belgisini (holati, payti, maqsadi, o‘rni, sababi, miqdor-darajasini) bildiradi: *sekin gapirdi, kecha keldi, atayin kelmadi, olg‘a yurdi, noiloj indamadi, kam gapirdi.*

Ravishdoshlar — ham fe’llik, ham ravishlik belgilarini bildiradi: *o‘qib, yoza-yoza, gapirgach, kelguncha, yozgali.*

Sifat — narsa va shaxslarning rang-tusi, shakli, mazasi, hajmi, holatini ifodalovchi so‘z turkumidir: *qizil olma, egri tayoq, shirin qovun, chuqur hovuz, sovuq havo, saxiy odam.*

Sifat darajalari — belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi shakllaridir.

1.Orttirma daraja — *qop-qora, oppoq.* 2.Qiyosiy daraja — *shirinroq, kattaroq.*
3.Ozaytirma *daraja—qizg‘ish, qoramtir.*

Sifatdoshlar — ham fe’llik, ham sifatlik belgisini bildiradi: *kelgan (odam), kelar (kunlar), kelgusi (bahor), kelajak (zamon).*

Son — narsalarning miqdorini, son jihatdan tartibini bildiradi: *birinchi, ikkinchi, ikkov, oltov, to ‘qqizta, o ‘nta, beshtacha, o ‘ttiztacha, o ‘ntadan, yuztadan, uchdan bir, to ‘rtdan uch.*

Morfemikaning grammatika bilan bog’liqligi (morfologiyada, ayniqsa, affiksatsiya yo‘li bilan yasalish; kategorial ko‘chish; sintaksisda: qo’shma so‘z bilan so‘z birikmasi orasidagi munosabat va b.) uning tabiatidagi yetakchi xususiyatlaridandir. O‘zak va affikslarning analizi morfologiyada ham, so‘z yasalishida ham uchraydi, lekin bu ikki sohaning analizi hodisaga qanday nuqtayi

nazardan yondashishi har xil, shunday bo‘lsa ham, baribir, har ikki soha uchun umumiy bo‘lgan hodisalar ham bor. Shunga ko‘ra, keyingi vaqtarda bularni yoritishning yangi sxemalari paydo bo‘ldi: dastlab morfemalaring har ikki sohaga aloqador bo‘lgan tomonlari beriladi, bu ayrim qism *morfemika* deb ataladi, keyin so‘z yasalishi, undan keyin morfologiya bayon qilinadi. Bu yangi tartib ilmiy jihatdan puxta asoslangan bo‘lib, praktik tomondan ham afzalliklarga ega.

Yana bir tilshunos olima R.Sayfullayeva morfemika bo‘limini alohida bo‘lim sifatida o‘rganar ekan quyidagicha e’tirof etadi:

“ Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lman mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo‘sishimcha ana shu psixofizik mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishi. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma’no,vazifa) jihat yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo‘lman bu birliklar o‘zida leksik va grammatik mohiyatni uyg‘unlashtirgan bo‘ladi:

- a) yangi so‘zlar hosil qiladi ;
- b) so‘zlarga qo‘sishimcha leksik-semantik qiymat beradi .²⁶

Har bir so‘z ma`lum bir formada bo‘ladi (*uzum—nol* forma, *uzumni*—tushum kelishigi formasi va b.), u shu hamma formalarning jamini o‘z ichiga olgan, umumlashtirgan birlik sanaladi. Uning hamma ko‘rinishlari bir so‘zning turli formalari sanaladi. Bundagi affikslar (-ni, -ga, -dan kabi) sintaktik funksiyani bajaradi: so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi, so‘zning qo‘silmadagi – gapdagi va so‘z birikmasidagi sintaktik vazifasini ko‘rsatadi. Demak, bu formalar orasidagi har xillik grammatik farqdir. Bundagi ma’no grammatik bo‘lib, so‘zning leksik ma`nosи o‘zgarmagan.

So‘zning morfologik qismlarga bo‘linishi so‘z yasashga ham, so‘zning formasini yasashga ham aloqador: ikkalasida ham hosil qilish yo‘li (affiksatsiya) va vositasi bir xil. Lekin so‘zning strukturasini o‘rganish, uni qismlarga bo‘lish

²⁶ R.Sayfullayeva.Hozirgi o‘zbek adabiy tili .T – 2009.

ikki xil: morfologik analiz va so‘z yasash analizi. Morfologik analiz (morfematik analiz deb ham yuritiladi) so‘zning morfologik strukturasini – morfema sostavini aniqlaydi, shunga ko‘ra u morfema analizi deb ham yuritiladi. Bundagi ikki qismga bo‘linish xususiyati “o‘zak va affiks” tusidagi gramma tik zidlik holatidir.

Grammatik ma’no ifodalovchi morfologik ko‘rsatkich gramma tik shakl yasovchi yoki qisqa qilib gramma tik shakl deyiladi .

Grammatik shakl (grammatik ko‘rsatkich , gramma tik shakl, morfologik ko‘rsatkich , morfologik shakl , morfologik vosita atamalari – ma’nodosh terminlar) tasnifi tilshunoslik ,jumladan, o‘rta va oliv ta’lim gramma tik tizimining muhim tushunchasidan biri bo‘lganligi sababli har doim dolzarb bo‘lib kelgan .O‘tgan davr mobaynida o‘zbek tili gramma tik ko‘rsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab ,keyinchalik rus tili gramma tik me’yoriga asoslangan holda berib kelindi . O‘zbek substansial tilshunosligi o‘zbek tilining agglutinativ tabiat va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda gramma tik ko‘rsatkichlarining yangicha tasnifini berdi .Bunga ko‘ra :

- a)lug’aviy shakl hosil qiluvchi ;
- b)sintaktik shakl hosil qiluvchi;
- d) lug’aviy - sintaktik shakl hosil qiluvchi farqlanadi :

Lug’aviy shakl hosil qiluvchi – so‘z ma’nosini qisman o‘zgartiruvchi, muayyanlashtiruvchi qo‘shimcha .Masalan , kitob so‘zida birlik ma’nosi ham (Bu kitob qiziqarli), ko‘plik ma’nosi ham (Do‘konga kitob keldi) mujassamlangan. Nutq sharoiti , matn kitob so‘zida birlik yoki ko‘plik voqealanishini ajratib beradi. Shu so‘zga (*-lar*) shakli qo‘shilishi bilan u kitob so‘zida birlik ma’nosini ko‘plik ma’nosidan chegaralaydi , ya’ni lug’aviy ma’noni muayyanlashtiradi, toraytiradi . Lekin yangi so‘z yasamaydi , so‘zni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qilmaydi .Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi , asosan ,to‘rt yirik so‘z turkumi – fe’l (nisbat , bo‘lishli- bo‘lishsizlik, o‘zgalovchi , sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot (son , kichraytirish –erkalash), sifat(daraja) va sonda (uning ma’no turini hosil qiluvchilar) mavjud bo‘lib , qo‘llanilishi o‘zi mansub so‘z turkumi

bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi , ya’ni so‘zlarni tasniflash chog‘ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakl deb yuritiladi.

Sintaktik (aloqa – munosabat) shakl hosil qiluvchilar so‘z lug’aviy ma’nosiga ta’sir etmay , so‘zlarni bir – biriga bog‘lashga yoki ularga ma’lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi . An’anaviy ta’riflardagidan farqli ravishda aloqa – munosabat shaklining qo‘llanilishi lug‘aviy shakllardek bir so‘z turkumi bilan chegaralanmaydi,ya’ni bu shakl istalgan mustaqil so‘zga qo‘shilib ,uni o‘zidan keying yoki oldingi so‘z bilan sintaktik aloqaga kiritadi yoki sintaktik vazifa tayinlaydi. Kelishik , egalik ,kesimlik shakllari ana shunday garammatik vositalardir .

Kelishik paradigmasi a'zolarining mazmun jihatni o‘ta mavhum: leksemalarni o‘zaro kelishtirish vazifasi – biror sintaktik bo‘lak sifatida shakllantirish. Mazmun jihatining o‘zga tomonida kelishik ma’nolari orasida ularni yagona tizimga birlashtiruvchi semani ajratish qiyin. O‘zaro tuzum hosil etib turish makon kelishiklarida mavjud: Bu uch kelishik “o‘rin“semasi asosida birlashib va har biriga xos semasi bilan zidlanib tuzum hosil qiladi: *-dan* – “harakatning chiqish o‘rni”, *-ga* – “harakatning yo‘nalish o‘rni”, *-da* – “harakatning bo‘lish o‘rni”. Asli bu uch kelishik ikkiga guruhanadi: chiqish va jo‘nalish kelishiklari – dinamik kelishiklar sifatida, o‘rin kelishigi – statik kelishik sifatida. Chiqish va jo‘nalish kelishiklari esa “harakatning ma’lum nuqtadan yo‘nalishi va ma’lum nuqtaga yo‘nalishi “ ma’nosini ifodalab o‘zaro ichki zidlanish hosil etadi.

Xullas, olti kelishikni ko‘zda tutib ulardan har biri boshqa besh kelishik bilan oppozitiv munosabat hosil etadi deyish uchun yetarli asos yo‘q; ayrim kelishiklar orasida ichki oppozitiv munosabatgina mavjud. Asli kelishiklar orasida, F. de Sossyur ta’kidlaganidek, assosiativ munosabat mavjud deyish to‘g‘ri: Bir kelishik boshqasini eslatib turadi, leksemashakl tarkibidagi ma’noli qismlar qatorida (aranjirovkasida) ayni bir o‘qda (pozitsiyada) joy oladi va biri o‘rnini ikkinchisi almashtirib egallaydi²⁷.

²⁷ Rahmatullayev Sh.Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T.2006

O‘zbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1.Til-nutq zidlanishi asosida umumiyliz-xususiylik, imkoniyat-voqelik, dialektik munosabatining morfologik sathida namoyon bo‘lishini ko‘rsatib berish.
- 2.Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi.
- 3.Til birliklari o‘rtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida bo‘ladi: Qatorlanish (sintagmatik), buyruqlanish (paradigmatik), pog’onaviylik (iyararxik). Qatorlanish – til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruh’lanish munosabati ma’lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfda birlashtiruvchi birliklar o‘rtasidagi munosabat sanaladi. Pog’onaviylik-kichik birliklarning o‘zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va bo‘lak munosabatini namayon etadi.
- 4.Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma’lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zamirida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma’nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiylisoniy ma’nosи asosida quriladi. Umumiylisoniy ma’nolar esa o‘zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko‘plik son shakllarining nutqiy ma’nolarini qiyoslasak:

Birlik son	Ko‘plik son
<i>Kitob</i>	<i>kitoblar</i>
<i>Ita kitob</i>	<i>ko ‘p kitob</i>

Ikki son shakl ma’nolarini qiyoslab hukm chiqara olamizki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdor (ko‘p kitob)ni ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko‘plikni ham ifodalay oladi.

Ko‘plik son esa hamisha noaniq ko‘plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko‘plikni ifodalash ko‘plik soning umumiylisoniy ma’nosи, birlikni ham, ko‘plikni ham, aniqlikni ham, noaniqlikni ham ifodalay olish esa birlik sonining umumiylisoniy ma’nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma'nolar asosida zidlanadi.

Mana shunday umumiy morfologik (grammatik) ma'nolarini ochish va paradigma a'zolarining zidlanish belgilarini tavsiyalash bugungi o'zbek tili nazariy morfoloyiyasining tadqiq manbaidir.

Bu ishga o'zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning keljakdagi faoliyatları bilan bog'liqdir.

1.2.O‘zbek tilshunoslarining grammatik kategoriyalarga doir nazariy qarashlari.

O‘zbek tilshunos olimlari morfologiyani alohida soha sifatida tadqiq etishar ekan, ularning o‘ziga xosligini ta’minlovchi grammatik kategoriylar haqida turli nazariy qarashlarini bildirib o‘tishadi.Xususan, professor Shavkat Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”²⁸ nomli kitobida morfologiya bo‘limini lug‘at birliklarining turkumlanishi tarzida bayon qiladi.Morfologik vositalarning so‘zga qo‘shilish tartibi . morfologik kategoriyalarning so‘z tarkibidagi tartibi ma’lum qonuniyatga ega bo‘lib ,bu hodisa ularning turi bilan bog’liq : so‘z yasovchi , lug‘aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi morfologik shakllar so‘zdagi o‘rni bilan farqlanadi.

Egalik qo‘s Shimchalar — predmetning qaysi bir shaxsga oidligini ko‘rsatuvchi qo‘s Shimchalar.

Birlik: *I—kitob+im, xona+m; II—kitob +ing, xona +ng;*

III—kitob+i,xona +si.

Ko‘plik: *I—kitob +imiz, xona+miz; II—kitob+ingiz, xona+ngiz;*

III—kitob+lari, xona+lari.

Kelishik kategoriyasi — ot, otlashgan so‘z, olmoshlarning ot yoki fe’l bilan grammatik ma’nosini va aloqasini ifodalovchi qo‘s Shimchalar. Hozirgi o‘zbek tilida 6 ta kelishik bor: 1. *Bosh kelishik* — qo‘s Shimchasi yo‘q. 2. *Qaratqich kelishigi* — qo‘s Shimchasi -ning. 3. *Tushum kelishigi*— qo‘s Shimchasi -ni. 4. *Jo‘nalish kelishigi* —qo‘s Shimchasi -ga, -ka, -qa. 5. *O‘rin-payt kelishigi* — qo‘s Shimchasi -da. 6. *Chiqish kelishigi*— qo‘s Shimchasi -dan.

Ko‘plik kategoriyasi — miqdor jihatdan ko‘p bo‘lgan shaxs va predmetlar yoki birdan ortiq shaxslar tomonidan bajarilgan harakat, holat: *kitoblar, yozdilar, yozdik, kelganmiz.*

Leksema	Sonlash	Morfemaning	Morfemaning ma'nosи
---------	---------	-------------	---------------------

²⁸ Rahmatullayev Sh.Hozirgi adabiy o‘zbek tili.T:Universitet,2006.

	morfemasi	mohiyati	
bola-	∅ I ←	→ birlik betaraf ↓ ko‘plik	xususan → bitta umuman ↑ bittadan ortiq
bola	-		
bola-	lar ←		

Yana bir tilshunos olima Ra’no Sayfullayeva grammatik kategoriyalar masalasiga quyidagicha yondashadi: “...butun uchun qism va ular o‘rtasidagi munosabat, sistema uchun element va ularni birlashtiruvchi aloqa shart va zarur bo‘lganligi kabi **grammatik kategoriya** uchun ham (ayni paytda morfologik hodisa haqida so‘z yuritar ekanmiz, grammatik kategoriya ostida morfologik kategoriyani nazarda tutamiz) aloqa va aloqada turuvchi birlik zarur. Muayyan ma’no umumiyligi ostida birlashgan va o‘zaro bu ma’noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi **grammatik kategoriya** hisoblanadi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig‘indisi emas, balki ma’lum bir turdagи shakllarning umumiyligi ma’no asosidagi barqaror munosabati tizmasidan iborat bo‘lgan yangi bir butunlik...”²⁹.

Bunda R.Sayfullayeva umumiyligi va farq umumiyligi ma’no asosida bo‘lishi lozimligi hamda buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni Grammatik kategoriya tushunchasiga munosabat nuqtayi nazaridan kuztish yetarli deb hisoblaydi.

Ma’lumki, kelishikning mohiyati “oldingi mustaqil so‘zni keying mustaqil so‘zga tobelab bog‘lash”dir. Bu mohiyat faqat ana shu morfologik ko‘rsatkichlar tizimiga xos. Har bir kelishik ushbu ma’noni o‘ziga xos tarzda xususiylashtirib, bu bilan bir-biriga zidlanadi. Masalan, qaratqich kelishigi “oldingi ismni keyingi ismga”, tushum kelishigi “oldingi ismni keying fe’lga” xususiylashmasiga ega Ravishdosh shakllari esa “fe’lni fe’lga bog‘lash” ma’nosiga ega

Ta’kidlash lozimki, grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakl o‘zaro pog‘onali, butun-bo‘lak munosabatlarda bo‘ladi. Bu esa biror grammatik shaklning qaysidir grammatik kategoriya mansub bo‘lmasligi mumkin

²⁹ Sayfullayeva R.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.2009-155-bet

emasligini ko'rsatad. Ayrim kategoriyada moddiy ifodali grammatic shakl bitta bo'ladi. Masalan, otning son kategoriyasida shunday holni ko'rish mumkin Bunda birlik son nol shaklli grammatic ko'rsatkich bo'lib, u ushbu shakliy va shunga muvofiq ma'noviy mohiyati bilan *[-lar]* shakli bilan ziddiyatda turadi.Sifatlardagi oddiy va qiyosiy daraja shakllari ham fikrimizni dalillaydi.

Shuningdek, R.Sayfullayeva o'zbek tilshunosligida tilimizdagи 9 ta Grammatik kategoriya mavjudligini ta'kidlaydi:

- 1) nisbat kategoriyasi;
- 2) o'zgalovchi kategoriyasi;
- 3) harakat tarzi kategoriyasi ;
- 4) bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi ;
- 5) son kategoriyasi;
- 6) daraja kategoriyasi;
- 7) kelishik kategoriyasi;
- 8) egalik kategoriyasi;
- 9) kesimlik kategoriyasi;
- 9.1) shaxs-son;
- 9.2) zamon;
- 9.3) tasdiq-inkor;
- 9.4) mayl;

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tadiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son va zamon ma'nolari birlashgan va ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada yuzaga chiqadi.Masalan, *olmani ol* gapida ol so'z shakli tasdiq,buyruq mayli,ikkinchi shaxs,birlik son va hozirgi zamon ma'nolarini voqealantirib kelmoqda va bular nol shakl bilan ifodalanmoqda.

Xususiyliklarni ma'lum tamoyillar asosida umumiyliliklarga birlashtirish va aksincha, muayyan umumiylilikning bevosita kuzatishda turlicha namoyon bo'lish imkonyatlarini ochib berishga, boshqacha aytganda, induktiv usulga tayangan

holda xususiyliklardan umumiylklarga o‘tish, umumiylklardan o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ochish-nazariy morfologiyaning bosh maqsadi sanaladi.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiy ma’nolar asosida zidlanadi.

Mana shunday umumiy morfologik (grammatik) ma’nolarini ochish va paradigma a’zolarining zidlanish belgilarini tavsiyalash bugungi o‘zbek tili nazariy morfologiyasining tadqiq manbaidir.

Bu ishga o‘zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning kelajakdagi faoliyatları bilan bog’liqdir.

Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiy ma’nosи bu formaning qo’llanilishida –sintaksisda voqealanadi. Shuning uchun morfologik shakl umumiy ma’nosи imkoniyat sifatida unda yashiringan bo‘ladi. Nutqda esa u ro‘yobga chiqadi, morfologiya va sintaksisning uzviy aloqadorligi bir-biridan ajralmasligi ta’minlanadi.

Morfologik shakl imkoniyat bo‘lsa, sintaktik qurilma voqealanishdir. Chunonchi, “ukamga” so‘z shaklini olib ko‘raylik. Bu shaklda:

1.Lug’aviy mano o‘zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo‘lgan bir avloddagi qarindosh.

2.Ma’lum bir so‘z turkumi “ot”ga mansublik.

3.Miqdor jihatdan aniqsizlik.

4.Qandaydir boshqa so‘zga tobe (to‘ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo‘nalganligi.

5.Bir shaxsga aloqadorlik ma’nolari mujassamlangan.

Bu ma’nolarning barchasi “ukamga” so‘z shaklida noaniq va umumiyyidir. Bu so‘z shakli nutqda boshqa so‘zlar bilan aloqadorlikda voqealanganlikda yuqoridagi ma’nolar muayyanlashadi.

“Kitobni ikkinchi ukamga oldim”,

“Bu gapni kenja ukamga aytdim”,

“Boshimni ko‘tarib o‘rtancha ukamga qaradim”.

Bundan biz yana bir xulosaga kelamiz: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo'llanishi bilan, balki lug'aviy mano va lug'aviy to'ldirilishi bilan ham uzviy bog'langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog'liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun'iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko'zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o'rganayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun'iy ravishda ozod qilishimiz kerak. Masalan: "Ahmadlar" so'z shaklida -lar qo'shimchasining ma'nosi "kitoblar" so'z shaklidagi "-lar" ma'nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi bo'lgan. "Ahmad" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo'lgan "kitob" so'zining lug'aviy ma'nosi bilan va morfologik shakl bo'lgan ko'plik sonining umumiy morfologik ma'nosiga aloqador emas. Xuddi shunday -ni tushum kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan vositasiz to'ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma'noga ega:

Uyni qurdik

Uyni buzdik

Uyni bezadik

Uyni ko'rdik

Uyni o'yladik

Lekin bu rang-baranglik "-ni" shaklining umumiy morfologik ma'nosidan emas, balki uning qanday so'zlar bilan birikib kelgani bilan bog'liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma'nosi ot yoki ma'nosi toraygan so'zni o'timli fe'l bilan tobe bo'lak (vositasiz to'ldiruvchi) mavqeida bog'lashdan iboratdir, xolos.

II BOB. Ta’lim bosqichlarida morfologiya bo‘limining o‘rganilishi .

2.1.Umumta’lim maktablarida morfologik vositalarning berilishi. Umumiylar o‘rtalim maktablari uchun ona tili fanidan yaratilgan **DTM** va o‘quv dasturida o‘quvchilarida morfologiya va morfologik vositalar mavzularini o‘rgangandan so‘ng shakllanishi lozim bo‘lgan fanga oid kompetensiyalar quyidagilar:

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):

A2

- mashq va topshiriqlardagi voqeа-hodisalarni, tinglangan matndagi axborotni tushuna oladi;
- mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o‘qydi;
- so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi.

95-105 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

A2+

- so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini to‘g‘ri, qisqa va ravon bayon qila oladi. 121-130 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana oladi;
- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.³⁰

Ta’lim bosqichlarida o‘rganiladigan har bitta mavzu ma’lum vazifani bajaradi. Ona tili darslarida o‘tiladigan har bitta mavzu orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, so‘zamol bo‘lishiga, o‘z fikrini mustaqil bayon qilishiga erishmog‘imiz lozim.

F.I.Buslayev mакtabda ona tili o‘qitish xususida gapirib, yozadi: “...ona tili bolalarining ...til sezgirligini istiqbolli taraqqiy ettirishga asoslangan bo‘lishi

³⁰ Umumiylar o‘rtalim davlat ta’lim standarti. Ona tili va adabiyot (5-9-sinf), O‘zbek tili (2-9-sinf). Toshkent: 2007.

lozim...”. O‘rta umumta’lim mакtablarida ona tili o‘qitishning asosiy mazmun mohiyati hozirgi kun ta’limi maqsadlariga moslab tuzilgan Davlat ta’lim standarti, dastur va darslikning quyidagi nazariy-amaliy asoslari bilan belgilab berilgan:

1. Ona tili milliy ma’naviyat va mafkura, milliy madaniyat va qadriyatlarning ulkan xazinasidir.
2. Ona tili millat tafakkurini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita.
3. Ona tili o‘qitishdan maqsad, ta’lim oluvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.
4. Mashg‘ulotlarda ona tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ustuvorligi ta’milanadi.
5. Darsliklarda o‘quv materiallari o‘quvchilarining har bir sinfda o‘rganadigan boshqa o‘quv fanlari va ulardan o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liqlikda beriladi.
6. Ona tili darsligidagi har bir topshiriq o‘quvchi tomonidan mustaqil bajarilishiga moslab tuziladi.
7. Darslik materiallari o‘quvchilarda tafakkurni va nutqni rivojlantirishning asosiy omillariga:
 - 1) lug‘at boyligini oshirishga;
 - 2) so‘z boyligidan ijodiy matn yaratish jarayonida foydalanishga;
 - 3) mustaqil fikr ifodasining maqsad va nutq vaziyatiga muvofiqligini tanlashga;
 - 4) aniq, ilmiy va obrazli nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga moslab tuziladi va beriladi.

Ona tilidan har bir mashg‘ulot yuqorida ko‘rsatilgan tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarida olib boriladigan ona tili darslarida hamda o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarida olib boriladigan hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida “Morfologiya” bo‘limida morfologik vositalar, qo‘sishimchalar va ularning uslubiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi.

Morfologik shakllar umumiy o‘rta ta’lim maktablarining quyidagi darsliklaridan o‘rin olgan:

1. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarinng 6–7-sinfi uchun darslik.(3-nashri) N.Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2013.

Darslikda “Morfologik kategoriya ” atamasi ishlatilmaydi.Biroq mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish davomida grammatik shakllarga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Ushbu darslikning 111-darsi “Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari” deb nomlanadi. Mavzuda quyidagicha qoida berilgan: “Otlarning -cha, -chak kabi qo‘sishimchalarini olgan shakli kichraytirish shakli, -gina (-kina, -qina), -jon, -xon, -oy kabi qo‘sishimchalarni olgan shakli esa erkalash shakli hisoblanadi”³¹

Bundan tashqari,egalik,kelishik, fe’llardagi zamon , nisbat, mayl, shaxs-son kategoriyalari ham mustaqil so‘z turkumlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

2. Ona tili: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. N.M.Mahmudov va boshqalar-Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,2017.Birinchi nashr.

Ushbu darslikda morfologik vositalarga kengroq urg‘u beriladi: subyektiv ma’no yuklovchi qo‘sishimchalarning o‘rganilishi uslubiyati, ko‘plik, kelishik, shaxs-son, zamon, inkor ifodalovchi morfologik

³¹ Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarinng 6-sinfi uchun darslik.(3-nashri) N.Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2013.

vositalarning uslubiyati mavzulari jami yetti soatga mo‘ljallangan bo‘lib, 6-onas tili darsligidan farqi shundaki, unda otlarning erkalash, kichraytirish shakllari “Subyektiv baho yuklovchi qo‘shimchalar” nomi bilan yuritiladi. Sababi o‘quvchilar 6-sinfda hali “subyekt” yoki “subyektiv” so‘zlarining ma’nosini anglamaydi. 10-sinfda ea endi o‘quvchi intellektual jihatdan ulg‘aygan va ushbu atamalarning ma’nosini anglash imkoniyatiga ega bo‘lgan darajada bo‘ladi.

6-sinf ona tili darsligida subyektiv ma’no yuklovchi qo‘shimchalarning faqat otlarga qo‘shilishi haqida so‘z ketadi, shuningdek, morfologiya va morfologik vositalarga oid darslar 11-darsdan boshlab beriladi. 10-sinf darsligida ushbu qo‘shimchalar sifat so‘z turkumiga ham qo‘shilish imkoniyatiga ega ekanliklari qayd etib o‘tilgan. Mavzuda subyektiv ma’no yuklovchi qo‘shimchalarning uslublarda qo‘llanilishi ham e’tibordan chetda qolmagan.

Darslikning 11-darsidan 19-darsiga qadar morfologik vositalar borasida ma’lumotlar va savol-topshiriqlar, mashqlar berib borilgan. Jumladan, “Subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar uslubiyati” mavzusida quyidagicha qoida keltiriladi: “Tilimizda *-cha*, *-choq*, *-gina*, *-loq*, *-jon*, *-xon*, *-toy* kabi bir qancha qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, ular subyektiv baho shakllari deb umumlashtiriladi. Ular kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari nomi bilan ham ataladi. Bu qo‘shimchalar otlar va sifatlarga qo‘shilib, shu so‘zlar ifodalagan narsa yoki tushunchaga so‘zlovchi (yozuvchi) ning subyektiv munosabatini bildiradi, ya’ni bu so‘zlarda ijobi yoki salbiy uslubiy bo‘yoqni yuzaga keltiradi. Bunday qo‘shimchali so‘zlar ko‘proq so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda kuzatiladi, ilmiy va rasmiy uslublarda esa ular juda nofaol, kam qo‘llanadi”.

3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –Toshkent: Ilm ziyo, 2013.

Ushbu darslikda morfologik qo‘shimchalar va ularning uslubiyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Mustaqil so‘z turkumlarining barchasiga xos

bo‘lga morfologik shakllar uslubiyati alohida mavzulashtirilgan. Xususan, darslikning 22-darsida “Ot va uning uslubiy xususiyatlari”, unda -lar ko‘plik shaklining qo‘llanish o‘rinlardagi uslubiy xususiyatlari berilgan; 24-dars sifat turkumining daraja shakllari hamda uslubiyatiga; 25–26-darslar sonni hosil qiluvchi grammatik shakllar, ularning uslubiyatiga, shuningdek, 28-darsi bo‘lmish “Kelishik va egalik shakllari hamda ularning uslubiy xususiyatlari”³² mavzusi subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalarga bag‘ishlangan.

Ta’lim darsliklarida morfologiya va morfologik vositalarga ajratilgan dars soatlarining ko‘pligi, ular bo‘yicha berilgan mashqlar tizimi, masalaning o‘quvchilarga tushintirilishi va o‘qitilishi mavzuning qay darajada ahamiyatli va dolzarb ekanligini belgilaydii.

³² Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 2-bosqich o‘quvchilari uchun darslik. –Toshkent: Ilm ziyo, 2013. 191-bet.

2.2.O‘quvchilarda morfologik tahlilni o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar (o‘yin-topshiriqlar) tizimi.

Fan asoslarini egallahsha nazariy bilimlar va amaliy mashg‘ulotlarning roli katta. Lingvistik tahlil o‘zbek tilshunosligining nazariy bilimlari sistemasini o‘rganishning maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til faktlari haqidagi nazariy ma’lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari aniq misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi.

Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o‘rganiladi. Lingvistik tahlil olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga ko‘ra aniq bir til yoki nutq birligini (so‘z yoki gap) parchalab o‘rganishdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning til hodisalarining tez va to‘g‘ri ajrata olish malakalarini egallahshlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o‘ynaydi. Lingvistik tahlil- o‘quvchi bilimining ko‘zgusi. Bilim turli qoidalar va atamalarni o‘zlashtirishdan iborat. Biroq undan amalda foydalana olmasa, u faqat mexanik tarzda yodlangan qoida va atamalardan iborat bo‘lib qoladi, xolos. Kishining ma’lumoti, madaniyati uning faoliyatida ko‘ringanidek, haqiqiy bilim amaliyotda qo‘llanishi bilan belgilanadi. Agar o‘quvchi tilshunoslikdan nazariy dars o‘tilganidan so‘ng shu darsda berilgan bilimni ma’lum bir matnni parchalab o‘rganishda mustaqil qo‘llay olsa, bunday bilim haqiqiy lingvistik bilim sanaladi. O‘quvchi bilimining haqiqiyligi, mustahkamligi tahlil jarayonida ko‘rinadi.

Lingvistik tahlil o‘quvchida bilimni amalda ishlata bilish malakasini hosil qiladi. Lingvistik tahlil orqali berilgan nazariy bilimning-lingvistik qoidalarning mohiyatiga ongli, amaliy tushuniladi . Agar o‘quvchi lingvistik tahlil jarayonida, tilning aniq bir hodisasiga bog’liq holda, nazariy darslardan olingan bilim, qoidalar ustida mustaqil mushohada qilsa, o‘z ongida ularni qayta ishlab chiqadi. Bu esa mazkur hodisalar mazmunini ochuvchi fikrlarning talaba xotirasida nisbatan saqlanib qolishini ta’minlaydi. Faqat tahlil orqaligina ayrim murakkab til hodisalarining mohiyatini yaxshiroq anglash mumkin.

Xususan, bugungi kunda o‘quvchilarni qiyin vaziyatlarga duch keltiradigan va o‘ylantiradigan muammolardan biri morfologik vositalarni bir-biridan farqlash hamda morfologik tahlil qilish ko‘nikmasini egallashdir. Shu boisdan , o‘quvchilarda berilgan nazariy bilimni amalda qo‘llay olish , har bir fan asoslariiga mustaqil va ijodiy yondasha olish qobiliyatini rivojlantirish uchun ,avvalo , uning amaliy tizimi ishlab chiqiladi .

Morfologik tahlil deyilganda so‘zni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni aniqlash ko‘zda tutiladi. So‘z turkumlarini tahlil qilish tartibini anglash juda muhimdir. Har bir so‘z turkumiga aloqador belgilarni sanash tartibi tasodifiy bo‘lmasligi kerak. Har bir turkumning xilma-xil belgilari ichida, ularning butun so`zga, uning har qanday shakliga ham taalluqli bo`lgan doimiy belgilari hammadan avval ajratilishi zarur. Masalan: ot turkumiga xos atoqli yoki turdosh, muayyan yoki mavhum bo`lishi, kim? nima? so`rog`ini olish faqat otgagina tegishli bo`lib, bular uning doimiy belgisi hisoblanadi va ot turkumining umumiy tavsifini tashkil etadi.

Morfologik tahlilda dastlab so‘zning boshlang`ich holati aniqlanadi va umumiy xarakteristika beriladi: uning doimiy belgilari sanaladi. So‘ng so‘z shaklining belgilari tahlil qilinadi. Oxirida ,agar so‘z gap ichida kelgan bo‘lsa, uning sintaktik aloqasi va vazifasi tahlil etiladi.

Ot so‘z turkumi tahlil tartibi

1. Ma’nosiga ko`ra turi (atoqli, turdosh, muayyan, mavhum, yakka, jamlovchi ot ekanligi)
2. Kelishigi. Kelishikning ma’nosi
3. Grammatik son. Ko‘plik qaysi usul bilan hosil qilingan
4. Egalik olgan-olmaganligi
5. Tuzilishiga ko`ra turi
6. Qaysi so‘z bilan bog`langanligi

7. Gapdag'i vazifasi

Ot turkumi tahlil namunasi

Uyda ko`klam chechagining hidi anqib ketdi.

Uyda – ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot, o`rin-payt kelishigida, o`rin ma'nosini bildirgan, birlik, egalik qo`shimchasi olmagan, sodda, tub, anqib ketdi so`ziga bog`langan, qaerda? so`rog`iga javob bo`ladi. Gapda o`rin holi vazifasida kelgan.

Ko`klam – ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot, belgisiz qaratqich kelishigida, birlik sonda, egalik qo`shimchasi olmagan, sodda, tub, chechagi so`ziga bog`langan, gapdag'i vazifasi qaratqich aniqlovchi.

Chechagining – ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot, qaratqich kelishigida, qarashlilik ma'nosini bildiryapti, birlik sonda, uchinchi shaxs, sodda, tub, hidi so`ziga bog`langan, gapdag'i vazifasi qaratqich-aniqlovchi.

Hidi – ot , nimasi? so`rog`iga javob bo`ladi, turdosh ot, yakka ot, bosh kelishikda, birlik sonda, uchinchi shaxs, sodda, tub, anqib turibdi so`ziga bog`langan, gapdag'i vazifasi ega.

Sifat turkumi tahlil tartibi

1. Ma'nosiga ko`ra turi (asliy yoki nisbiy)
2. Predmetning qanday belgisini bildiradi?
3. Darajasi. Daraja ma'nosni qaysi vosita orqali yuzaga chiqqan?
4. Ozaytirma yoki kuchaytirma sifat
5. Otlashganligi
6. Tuzilishiga ko`ra turi
7. Bog`langan so`zi
8. Gapdag'i vazifasi

Sifat turkumi tahlil namunasi

Daraxtlarning barglari sarg`ish tusda tovlanadi.

Sarg`ish-sifat, asliy sifat, predmetning rangini bildiradi, ozaytirma sifat, daraja ma'nosi – ish affiksi orqali ifodalangan, sodda, tub, tusda so`ziga bog`langan, gapdagi vazifasi –sifatlovchi-aniqlovchi.

Hammasi yosh, quvnoq edi.

Yosh – sifat , asliy sifat, shaxsning xususiyatini bildiradi., oddiy daraja, otlashmagan, sodda, tub, gapdagi vazifasi kesim.

Quvnoq – sifat, nisbiy sifat, shaxsning xususiyatini bildiradi, oddiy daraja, otlashmagan, sodda, yasama. Quvna fe'liga -q sifat yasovchi affiks qo`shilgan, gapdagi vazifasi - kesim.

Son turkumi tahlil tartibi

1. So`rog`i, ma'nosiga ko`ra turi
2. Butun son, kasr son, aralash son
3. Numerativ so`z bilan kelgan-kelmaganligi
4. Otlashganligi
5. Tuzilishiga ko`ra turi
6. Gapdagi vazifasi

Son turkumi tahlili namunasi

Olimning bizgacha saqlangan oltita asarining barchasi islom huquqshunosligi – fiqh masalalariga bag`ishlangan.

Oltita – son , qancha? so`rog`iga javob bo`ladi, miqdor son, donna son, -ta qo`shimchasi bilan shakllangan, butun son, numerativ so`z bilan kelmagan, otlashmagan, sodda, gapdagi vazifasi sifatlovchi-aniqlovchi.

Fe'l turkumi tahlil tartibi

1. Turi (mustaqil yoki yordamchi fe'l ekanligi)
2. O`timli yoki o`timsizligi
3. Nisbati
4. Bo`lishli-bo`lishsizligi

5. Fe'lning vazifadosh shakli
6. Shaxs-soni
7. Mayli
8. Zamoni
9. Tuzilishiga ko`ra turi
10. Gapdag'i vazifasi

Fe'l turkumi tahlili namunasi

Beruniy bolani tarbiyalashni besh tarmoqqa bo`ladi.

Tarbiyalashni – fe'l, mustaqil fe'l, o`timli, aniq nisbat, bo`lishli, harakat nomi, tushum kelishigi shaklida kelgan, 3 shaxs birlik, harakat nomi bo`lgani uchun zamon ko`rsatmaydi, sodda, yasama, tarbiya otidan –la yasovchi affiksi yordamida fe'l yasalgan, gapdag'i vazifasi vositasiz to`ldiruvchi

Bo`ladi – fe'l, nima qiladi? so`rog`iga javob bo`ladi, mustaqil fe'l, o`timli, aniq nisbat, bo`lishli, sof fe'l, 3 shaxs birlik, xabar mayli, o`tgan zamon, yaqin o`tgan zamon, sodda, tub, gapdag'i vazifasi kesim.

Ravish turkumi tahlili tartibi

1. Ma'nosiga ko`ra turi
2. Darajasi
3. Tuzilishiga ko`ra turi
4. Bog`langan so`zi
5. Gapdag'i vazifasi

Tahlil namunasi

Men o`sha kunni tezroq ko`rishga shoshilyapman.

Tezroq-ravish, holat ravish, orttirma daraja, sodda, tub, gapdag'i vazifasi hol.

Olmosh turkumi tahlili tartibi

1. Ma'nosiga ko`ra turi
2. Kelishigi

3. Egalik va grammatik soni
4. Qaysi so`z turkumi o`rnida kelganligi
5. Tuzilishiga ko`ra turi
6. Gapdagi vazifasi.

Tahlili namunasi

Bizning a'luchi bo`lib o`qiyotganimizni ko`rganda o`qituvchining boshi ko`kka etadi.

Bizning – olmosh , kishilik olmoshi, qaratqich kelishigida, tuzilishiga ko`ra sodda, gapdagi vazifasi qaratqich-aniqlovchi.

Ma'lumki, ta'lim bosqichlari ona tili darslarida qo'llaniladigan o'quv topshiriqlarining muayyan qismini *o'yin topshiriqlari* tashkil etadi. Til hodisalarini o'rghanishda o'yin vaziyatini yaratish yoki o'yin darslari tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.³³ Chunki ona tili fani ko'p mavhum tushunchalar, ta'rif, qoida va xulosalar bilan ish ko'radiki, ularni xotirada saqlab qolish zarur paytda amaliy faoliyatda qo'llash o'quvchiga qiyinchilik tug'diradi. O'quvchi har bir o'rghanilayotgan til hodisasini o'zining aqliy faoliyatidan o'tkazsa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ishlar bajarsa, aqliy faoliyat usullari: kuzatish, taqqoslash, guruqlash, umumlashtirish kabi bosqichlarni bosib o'tsagina, u o'rghanilishi ko'zda tutilgan til hodisalarining mohiyatini puxtarq anglardi va uni o'rghanishga qat'iy kirishadi-yu *o'yin-topshiriqlar* ham o'quvchidan xuddi mana shu bosqichlarni bosib o'tishni talab etadi va uni ta'lim jarayonining subyektiga aylantiradi.

Ta'limiy o'yinlarning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u o'quvchidan tezkorlik, sezgirlik va topqirlikni talab qiladi.

Ta'limiy o'yinlarning boshqa o'yin turlaridan tub farqi shundaki, bola jarayonda ishtirok etishi orqali bilim oladi, egallagan ko'nikma va malakalarini kengaytiradi.

Bu vazifalar o'quvchini bilim, ko'nikma va malakalar silsilasi bilan qurollantirshni nazarda tutadi. Modomiki shunday ekan, demak, o'qituvchi o'quvchilarni

³³ Худойқулов X.К. Ўқитишнинг интерфаол технологияларидан фойдаланиш – касбий билимларни ўзлаштиришнинг муҳим омили. “Касб-хунар таълими”, 2014, 5-сон, 15-бет.

belgilangan vazifani bajarishga undaydi, yo‘naltiradi. Bu jarayon o‘quvchidan oldin egallagan bilimlarni xotirada tiklashni, zaruriyat tug’ilganda uni yangi sharoitda qo‘llay olishi, o‘zida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi.

Ta’limiy o‘yinda harakat usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin harakati o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga tortishi bilan birga, ularni tez faoliyat ko‘rsatishga ham undamog‘i darkor. Chunki bellashayotgan o‘quvchilar yoki muayyan guruhlardan texkorlik, sezgirlik, chaqqonlik talab etiladi. Shuni unutmaslik lozimki, faqat harakat usulidan xabardor o‘quvchigina o‘yin shartini to‘g’ri bajarishga yo‘l topadi.

Ta’limiy o‘yinlar hamma vaqt belgilangan qoidaga bo‘ysinadi. Shubhasiz, bu qoidalar o‘yin-topshiriqning shartida o‘z ifodasini topadi. O‘yin qoidasiga qat’iy amal qilish uchun uni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartidir. Ma’lumki, ta’limiy o‘yindan ko‘zlangan maqsad uning natijasida namyon bo‘ladi. Shuning uchun musobaqadosh ishning yakunida nimaga erishishlari mumkinligini aniq bilishlari kerak. Dars jarayonda tashkil etiladigan ta’limiy o‘yinlarning asosiy maqsadi o‘quvchilarni zerikish va toliqishdan saqlashdir. Shuni yodda turmoq lozimki, o‘yin orqali singdirilgan bilim o‘quvchi xotirasiga mustahkam o‘rnatib qoladi va bu bilimlarni u har qanday tanish va notanish sharoitida ishga sola oladi.

Lisoniy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga qaratilgan o‘yinlar va shu jarayonda bajariladigan o‘yin-topshiriqlar asosan grammatik bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zlashgan bilimlar asosida ko‘nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday o‘yin-topshiriqlarga bilim olishga va uni mustahkamlashga qaratilgan ish turlarini kiritish mumkin.

Mashqlar. Mashqlarning maqsadi o‘quvchilarning mavzuga oid nazariy ma’lumotlar yuzasidan puxta bilim olishini va o‘zlashgan bilimlar asosida ko‘nikma va malakalar hosil qilishini kafolatlashi lozim. Mashqlarni bajarish natijasida o‘quvchilar olgan bilimlarni ongli o‘zlashtira boradilar, bilimlarni amalda qo‘llay oladilar, savodli fikrlash malakalari orta boradi.

Maktab va akademik litseylarning ona tili darslarida mashqlarning quyidagi turlari ko‘proq o‘tkaziladi:

- o‘rganilayotgan morfologik vositalarni amaliy tatbiq etish;
- misollar tanlash;
- matnni yoki so‘zni shaklan o‘zgartirish;
- matndan zarur bo‘lganlarni ko‘chirib yozish;
savol va topshiriqlarga javob yozish;
- nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki grammatik shaklni qo‘ya olish;
berilgan namuna asosida grammatik kategoriyalarga oid so‘z, birikma
va so‘zlar ishtirokida mavzu bo‘yicha gap, matn tuzish;ularning
turlarini aniqlash;
so‘z va gaplardagi so‘z turkumini aniqlash,ularda qo‘llangan
morfologik vositalar uslubiyatini izohlash.
- o‘quvchilarning yozma va og’zaki fikrlarini to‘g’ri ifodalash malakasini
hosil qilishi lozim;

Testlar. Test sinovi nazoratning zamonaviy usullaridan bo‘lib, har bir o‘quvchi mustaqil fikrlash asosida bergan javoblarini xolisona baholash, o‘zlashtirilgan bilim darajasini individual va butun sing (guruh) bo‘yicha baholash imkoniyatini beradi. Ona tili fanini o‘rganish bo‘yicha qo‘llaniladigan sinov testlari og’zaki va yozma nutqni, tilni tushunishni, grammatik bilimlarni tekshirishni ko‘zda tutadi. Shunga ko‘ra testlar tizimi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Har bir mavzuning o‘zlashtirilishini nazorat qiluvchi testlar.
- Chorak-sinov testlari.
- Yillik (yarim yillik) sinov testlari.

Testlar qo‘llanish maqsadiga ko‘ra, o‘zlashtirilgan bilimlarning kamchiliklarini aniqlashga, chuqurroq o‘zlashtirishga erishish uchun:

- Ma’lum bir mavzu bo‘yicha olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni sinash ko‘rinishlarida bo‘lishi lozim.

- Test topshiriqlari ishonchli, amaliy bo‘lishi lozim.

Demak,o‘quvchilarda morfologik vositalarni qo‘llash malakalarini rivojlantirishga oid mashqlarning berilishi o‘quvchi tafakkur dunyosini o‘stiradi.

1-topshiriq. Ko‘plik qo‘shimchasining uslubiy ma’noda qo‘llanishiga misollar toping.

2-topshiriq. So‘z va qo‘shimchalar ifodalaydigan ta’sirli baho haqida yodingizda qolgan tushunchalarni ayting.

Eslang.

Ta’sirli subyektiv (shaxsiy) baho beruvchi qo‘shimchalar so‘zlovchining shaxsga, biror narsa yoki harakat, holatga bo‘lgan munosabatini ifodalash bilan uslubiy ma’noga ega bo‘ladi.

Akademik litsey ikkinchi bosqich hozirgi o‘zbek adabiy tili darsida ma’ruza mashguloti ta’lim texnologiyasining modeli

O‘quv vaqt: 80 minut	Talaba soni
O‘quv mashg`ulotining tuzilishi Ma’ruza rejasi	<p>1. . So‘zlarni turkumlarga ajratishdagি tamoyillar.</p> <p>2.Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos belgilari.</p> <p>3. Ot turkumining kelishik, egalik, grammatic son, fe’l esa mayl, nisbat, zamon, shaxs-son qo‘shimchasini qabul qilishi.</p> <p>.</p>

O‘quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda morfologik tahlil to`g`risida tushuncha hosil qilish. Morfologik tahlil ahamiyatini yoritib berish.

Pedagogik vazifalar: Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy masalalar bo‘yicha tushunchalarni shakllantirish.	O‘quv faoliyatining natijalari: Talabalar Morfologik tahlil haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, asosiy ma’lumotlarni kospektlashtiradilar. Guruhlarda ishslash jarayonida mustaqil fikrlash davomida taklif qilingan kichik muammolarni yechimini topadilar.
Ta’lim usullari:	Ma’ruza, “Nima uchun?” diagrammasi,

	“aqliy hujum “
O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli	Ommaviy
Ta`lim vositalari	Slaydlar, marker, flipchart, jadval
Qayta aloqa usullari va vositalari	Savol- javob

O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	O`quvchining
1 bosqich 1.1 O`quv xujjalalarini to`ldirish va davomatni tekshirish 5m. 1.2 Kirish 5m.	1.2. O`tilgan mavzudan kelib chiqqan holda morfologik tahlil yana bir bor izoxlanadi va unda Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos belgilari tushuntiriladi.	Tinglashadi aniqlashtirishadi, oldingi mavzuni eslaydilar, savollar beradilar.
2-bosqich Asosiy 56 min	2.1. Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos belgilari haqida ma’lumotlar beriladi. Turli asosga ko`ra har bir so‘z turkumining o‘ziga xos belgilari turlarini tasniflovchi sxema keltiriladi. Morfologik tahlil jarayonlari va farqlari tushuntiriladi. 2.2 Morfologik tahlil. So‘zlarni turkumlarga ajratishdagi tamoyillar. Har bir so‘z turkumining o‘ziga xos belgilari. Ot turkumining kelishik, egalik, grammatick son, fe’l esa mayl, nisbat, zamon, shaxs-son qo’shimchasini qabul qilishi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, xotira turlarini sxemasini chizib oladilar. Atamalarni konspektlashtirib, jadvallarni chizib boradilar.
3- bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish va bilish faoliyati yuzasidan umumlashtiruvchi fikr bildiriladi. 3.2 O`quvchilarga “Nima uchun?” diagrammasini to`ldirish taklif etiladi, va o`quv	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma’lumotlarga tayangan xolda “Nima uchun?” diagrammasini to`ldiradilar. Xotira,xayol va tafakkur kabi jarayonlarni nima uchun o`rganish va

mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi taxlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashgulotga tayyorlanish	rivojlantirish kerak ekanligi haqida fikrlar bildiradilar, olgan ma'lumotlarini yana bir bor ahamiyatii anglashga intiladilar..
--	---

Ma'lumki, o‘quvchilar o‘z nutqlarida kichraytirish, erkalash otlaridan unumli foydalana olmaydilar. O‘zbek milliy an’analari qayta jonlanayotgan, o‘z mavqeini tiklayotgan bir davrda bu qo‘srimchali so‘zlar alohida ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, yuksak madaniyatli o‘zbek ziyolilari oilalarida azaldan bolalarga, ota-onaga, qavm-qarindoshlarga, umuman, suhbatdoshlarga yuksak hurmat bilan murojaat etish shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmat belgisi bo‘lgan. Shuning uchun o‘zini hurmat qilgan shaxs suhbatdoshini hech qachon sensiramasalan, murojaat so‘zlarini, atoqli otlarni erkalash, hurmat qo‘srimchalarisiz ishlatmas edi. So‘zlovchi shaxs ma’naviy, madaniy jihatdan qancha boy bo‘lsa, uning kichiklarga, tobelarga murojaati shuncha samimiy va latofatli bo‘lgan. Bu badiiy adabiyotimizda onda-sonda bo‘lsa ham uchrab turadi. Yozuvchi Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida Mirzo Boburning ashaddiy dushmani Shayboniyxonning o‘g‘li, tug‘ishgan opasining farzandi Xurramshoh bilan suhbat sahnasi, Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanida Yusufbek Hojining o‘gli, xotini, kelinlari, xizmatkori bilan suhbat sahnalari buning misoli bo‘la oladi. Bunday shirin muomala har bir madaniyatli o‘zbek oilasi uchun xos xususiyatdir. Buni erkalash, kichraytirish qo‘srimchalarining qo‘llanish doirasini kengaytirish orqali, amalga oshirsa bo‘ladi. Shu sababli, «Ot» so‘z turkumini o‘rganishda milliy tarbiyaning bu qirrasi o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi lozim”.³⁴

Mualliflar ot so‘z turkumi ichida o‘rganiluvchi ushbu qo‘srimchalarining o‘qitilishi qanchalik muhim ekanligi ta’kidlab o‘tgani holda, ularni qanday o‘qitish zarurligi to‘g‘risida o‘zlarining tavsiyalarini bermaydilar.

³⁴ Фуломов А. Она тили ўқитиши принциплари ва методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992

Morfologik qo'shimchalar uslubiyatini o'rgatishda ham an'anaviy, ham innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish mumkin. Ularning har ikkisidan ham to'g'ri foydalanish darsda yaxshi samaraga erishishga yordam beradi. Maktablarda shu vaqtgacha qo'llanilgan **an'anaviy o'qitish metodlari** xilma-xil bo'lib, keng tarqalgan va eng ko'p qo'llaniladigan turlari quyidagilardir:

- 1) o'quv mavzusini og'zaki bayon qilish;
- 2) suhbat;
- 3) darslik va kitob bilan mustaqil ishlash;
- 4) demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan ko'rsatish) va ekskursiya;
- 5) og'zaki, yozma mashq hamda grafik ishlar, maktab ma'ruzasi;
- 6) amaliy mashg'ulotlar (laboratoriya ishi, masala ishlash)³⁵.

Innovatsion usullar. Innovatsiya-lotincha so`z bo`lib, “yangilik kiritaman, tatbiq etaman, o'zgartiraman” degan ma'noni bildirib, u quyidagi usullardan iborat³⁶:

Namoyish qilish

Kichik guruhlarda bo'lish

Aqliy hujum

Tanqidiy tafakkur

Debatlar

Nuqtai nazaring bo'lsin

³⁵ Ишмуҳамедов Р. Абдуқодиров А. Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). -Т.: Истеъодод, 2008.

³⁶ O'qitish metodlari va innovatsion usullari

“Suhbat” usuli

Morfologik qo‘shimchalarni o‘qitishda foydalaniladigan eng samarador usullardan yana biri “**Suhbat**” usulidir. Bu ko‘pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metod dars jarayonida savol-javob vositasida olib boriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarining o‘zlarida bor bilimlardan foydalangan holda mavzuni tushuntiradi. Ushbu usulni ko‘proq maktab o‘quvchilariga, ayniqsa, 6-sinf o‘quvchilariga otlarda erkalash - kichraytirish shakllari mavzusiga nisbatan qo‘llash mumkin. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:


- a) dastlab, o‘quvchilardan ular ota-onalariga(aka-uka va opa-singillariga) qanday murojaat qilishlari so‘raladi. Bunda ular *oyijon*, *dadajon* (*akajon*...) qabilida javob qaytaradilar;
- b) so‘ngra o‘quvchilarga turli hayvon bolalarining (buning o‘rniga turli kichkina narsalardan ham foydalanish mumkin) rasmlari ko‘rsatiladi va ulardan bularning nima ekanligi so‘raladi. O‘quvchilar *mushukcha*, *kuchukcha*, *qo‘zichoq*, *qushcha* qabilida javob qaytaradilar.
- c) ota-onalar farzandlarini erkalaganlarida qanday so‘zlardan foydalanishlari so‘raladi. Javoblar *qizcham*, *qizalog‘im*, *shirincham* qabilida bo‘ladi.

“Yagona davra” strategiyasi

“Yagona davra” strategiyasi o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglash, ularni to‘ldirish, shaxsiy fikrlarini asoslash, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan har bir o‘quvchining fikrini bilish muhim. Shuning uchun har bir o‘quvchi fikr bildirayotganda uning so‘zini bo‘lish, qo‘shimcha qilish hech kimga, hatto o‘qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. Strategiyani qo‘llashda quyidagi quyidagi shartlarga amal qilish shart:

1. O'quvchilar davra qurib o'tirishlari, o'rtaga tashlangan savol yuzasidan o'z tushunchalarini bayon etishlari.
2. O'quvchilar o'zlariga navbat kelishini kutib o'tirmay, mavzu yuzasidan fikrlarini ayta olishlari.
3. Mashg'ulotda har bir o'quvchinig faol ishtirok etishi, muhokamaga o'z hissasini qo'shishini ta'minlash.

O'qituvchi muhokama yakunida bildirilgan umumlashtirilishi, har bir o'quvchining ishtirokini ko'rsatib o'tishi lozim. Strategiya, odatda, mashg'ulotning boshlanishi yoki yakunida qo'llaniladi.




Morfologik vositalarni o'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan "Yagona davra" metodidan foydalinishi yaxshi samara berishi mumkin. Bunda o'qituvchi taxminan quyidagicha savol bilan murojaat qilishi mumkin:

"Nima deb o'ylaysiz, siz o'r ganayotgan otlardagi lug'aviy shakl yasovshi qo'shimchalar kesatiq, yerga urish ma'nolarida ham qo'llanishi mumkinmi? Misollar keltira olasizmi?" Bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini ham tekshirishga imkon beradi. O'quvchilar o'zlarini o'qigan badiiy asarlarini eslashlari va undagi parchalardan misollar keltirishlari mumkin. Bu

o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, darslikda berilgan misollardan tashqari, o‘zlari mustaqil ravishda misollar topa olishlariga ko‘maklashadi.

“Charxpalak” metodi

“Charxpalak” metodi o‘quvchilarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtida o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat³⁷. Metod quyidagi ko‘rinishga ega:



³⁷ O‘. Muhmmedov ba boshqalar. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar.O‘quv-uslubiy tavsiyalar.- Toshkent,2016

Fe'llarning nisbat shakllari mavzusini o'tayotganda ushbu usuldan foydalanish har bir o'quvchining individual fikrini aniqlashga va har bir o'quvchini bir-birining fikri hamda bilimi bilan tanishtirishga yordam beradi. Darsda ushbu metod quyidagi tartibda qo'llanadi:

1. O'qituvchi o'quvchilarni shartlar bilan tanishtirib, ularni guruhlarga ajratadi.
2. Guruhlarga fe'lning nisbat qo'shimchalariga uchtadan gap misolida misol keltirish vazifani qo'yilgan tarqatma materialli topshiriqlar beriladi.
3. Topshiriqni bajarish uchun ma'lum vaqt belgilanadi.
4. A'zolar guruhda individual ravishda tarqatma materialda ko'rsatilgan vazifani bajaradilar(guruh raqami va o'zi bajarganligining belgisi qo'yiladi).
5. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi.
6. Har bir guuh tomonidan material mazmuni o'rganiladi va o'zgartiriladi. Bir o'quvchining misoli boshqa o'quvchinikiga o'xshamasligi kerak.
7. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach , tarqatma materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi(almashtirish guruhlar soniga qarab amalga oshiriladi).
8. Guruhlar o'z yechimlarini bitta qutiga yig'adi.
9. Materiallar so'nggi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh o'zi bajargan yechimni(guruh raqami va belgi asosida) tanlab oladi.
10. Har bir guruh va uning a'zolari o'zlarining yechimlarini boshqa guruhlarning ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi.
11. O'qituvchi jamoa yordamida to'g'ri javoblarni aniqlaydi.
12. Tahlil asosida har bir guruh va o'quvchilarning faoliyati baholanadi(bir vaqtning o'zida o'quvchilar ham o'z-o'zini baholaydi).

Bu metodni , asosan , 6-sinflar uchun qo'llash ko'proq samara beradi.

“Bumerang” strategiyasi

“Bumerang” texnologiyasi o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqari vaqtarda turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrlarini erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko‘p bilimga ega bo‘lish, o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o‘qituvchiga tarqatma materiallarning o‘quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o‘zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta’minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidgi darslarda individual, juftlik va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin. Ona tili darslarida subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalar uslubiyatini o‘rgatishda ushbu usulni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Kichik guruhlar tashkil etilib, shartlar tushuntiriladi.
2. Har bir guruhga mustaqil o‘rganish uchun alohida matn tarqatiladi. Bir guruhga berilgan matnda otlarga qo‘sila oluvchi subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalar haqida, ikkinchi guruhga sifatlarga qo‘sila oluvchi subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalar haqida, uchinchi guruhga bunday qo‘srimchalarning salbiy m’noda qo’llanilishi haqidagi ma’lumotlar bo‘ladi.
3. Guruhlar o‘zlariga berilgan ma’lumot asosida o‘quv materialini o‘zlashtiradi.
4. Kichik guruhlar qayta tashkil etiladi.
5. O‘quvchilar kichik guruhlarda navbat bilan o‘zları mustaqil o‘rgangan matnlar haqida bir-birlariga ma’lumot berib, tengdoshlari tomonidan o‘rganilgan matnlarni ham o‘zlashtiradi. O‘quvchilar tomonidan subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalarning turli turlari haqidagi materiallarning samarali o‘zlashtirilganligini aniqlash uchun savol-javob asosidagi ichki nazorat o‘tkaziladi.
6. Guruh a’zolari o‘zlarining dastlabki guruhlariga qaytadilar.
7. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha savollar berish, og‘zaki so‘rash asosida

o‘quvchilar tomonidan mavzuning samarali o‘zlashtirilganligini aniqlaydi.

8. Savollarga berilgan javoblar asosida guruhlar tomonidan to‘plangan ballar umumlashtiriladi va guruh a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi.

“Nihol o‘stiramiz” usuli

Ona tili darslarida subyektiv baho ifodalovchi qo‘sishimchalar uslubiyatini o‘qitishda “Nihol o‘stiramiz” zamonaviy usulidan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “Nihol o‘stiramiz” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o‘quvchilarini guruhlarga bo‘lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bar guruhga 1 donadan oq qog‘oz beriladi. O‘quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o‘quvchilar oq qog‘ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o‘stiradi. O‘quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma‘lumot bilan niholda bitta shox paydo bo‘ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o‘qituvchiga o‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o‘quvchilarning tasviriy san’at faniga bo‘lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi.

“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi...) ortiqcha” metodi


O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib borishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan to‘rtta (beshta, oltita,...) tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

- o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash, mavzuni mustahkamlash maqsadida, o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini asoslashlarini talab etish lozim. Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini ko‘rsata olish va asoslay olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Fe’lning zamон qo‘srimchalari uslubiyatini o‘qitishda ushbu uslubdan quyidagicha foydalanish mumkin:

Qaysi biri ortiqcha?



Buning natijasida o‘quvchilar nafaqat juftliklardagi ma’nolarning farqini aniqlaydi, balki barcha juftliklar o‘rtasidagi o‘zaro farqni ham ajratadi va mavzuni o‘z nuqtayi nazaridan deyarli anglaydi.

O‘quvchilar ushbu vazifani bajarishgach, o‘qituvchi tomonidan ularga kichik qog‘ozlar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu qog‘ozlarga har bitta qo‘srimcha ishtirokida gaplar tuzadilar. Qog‘ozning orqa tomoniga esa o‘z ismlarini yozib qo‘yadilar. Vazifa bajarishga ma’lum vaqt belgilanadi va qog‘ozlar yig‘ib olinadi hamda ularni aralashtirib o‘quvchilarga tarqatiladi. Bunda hech qaysi o‘quvchiga o‘zi bajargan ish berilmaydi. O‘quvchilarga o‘z sinfdoshlarining ishlarini tekshirish vazifasi topshiriladi. Bu vazifa o‘quvchilardan diqqat va sinchkovlikni talab qiladi. Ma’lum vaqtdan so‘ng qog‘ozlar o‘qituvchi tomonidan yig‘ib olinadi hamda tekshiriladi. Bu o‘quvchilarda darsga bo‘lgan mas’uliyat hissini oshiradi.

III .BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Tajriba-sinov materiallari

Biz Yakkasaroy tumani XTB tasarrufidagi 73-sonli umumta’lim maktabida 10- sinfida tadqiqot ishlari olib bordik. Tadqiqot ishimizga 19 nafar o‘quvchini jalg qildik.

10-sinf ona tili darsligidan foydalanib , subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar uslubiyati qoidalariga mos keladigan mashq va topshiriqlar bo‘yicha bir necha vosita va usullarni ishlab chiqdik hamda o‘z oldimizga quyidagi vazifalarni qo‘ydik:

- 1) o‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- 2) so‘z tarkibidan subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalarni ajratish va izohlay olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- 3) subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar turlarini aniqlash va izohlashga o‘rgatish;
- 4) turli didaktik o‘yinlar orqali maqsadga erishish.

Tajriba-sinov ishimizda 10-sinfning 19 nafar o‘quvchisini 4 ta guruhga bo‘ldik: 1- guruh “Morfologiya”, 2- guruh “Leksikologiya”, 3-guruh “Fonetika”, 4-guruh “Orfografiya” deb nomlandi. So‘ngra guruh sardorlari saylandi. Har bir guruhga tarkibida subyektiv baho ifodalovchi qo‘shimchalar qo‘llangan bir xil matn taqdim etildi:

“...ona qizim, tili chuchuk Robiyabibiga alangali salomlar bo‘lsin va yana otam o‘rnida otam, suyangan tog‘im, o‘g‘il-qizlarimning mehriboni Parpi amakimga, onam o‘rnida onam, ko‘zimning nuri To‘xta xolamga lak-lak duoi salomlar yo‘llab qolaman va ularga ma’lum bo‘lsinkim, haligacha na Anorvoyni, na Bo‘rivoyni na Dehqonboyni ko‘ra oldim. Ular boshqa jang maydonida urushayotgan bo‘lsa kerak. Xolajonim berib yuborgan sovg‘a-salomlarni qopga solib orqalab yuribman, ko‘rib qolsam, albatta, topshiraman...”³⁸

³⁸ Mungli ko‘zlar : Ertak-roman / Xudoyberdi To‘xtaboyev.-T.: Yangi asr avlod, 2013.

O‘quvchilarga ushbu matn tarkibidan subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalani ajratib olish hamda ularni guruhlarga (kichraytirish qo‘srimchalari hamda erkalash qo‘srimchalari tarzida) ajratish vazifasi topshirildi. Sinfdag‘i 15 nafar (81 %) o‘quvchi ushbu vazifani to‘g‘ri amalgga oshirdi, 4 (19 %) nafar o‘quvchi kichraytirish otlarini aniqlashda biroz xatoliklarga yo‘l qo‘yishdi(erikalash qo‘srimchalari bilan almashtirib yuborishdi).

So‘ngira biz ushbu sinfda quyidagi usulda dars o‘tdik:

3.2 . Ochiq dars ishlanmasi.

Sinf: 10

Mavzu: Subyektiv baho ifodalovchi qo‘srimchalar uslubiyati

Darsning maqsadi:

1. Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga kichraytirish va erkalash qo‘srimchalari haqida kerakli bilimlar berish.
2. Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.
3. Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kompetensiya:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: darslik materiallaridan va televizor, radiodan zarur ma’lumotlarni topa olish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: mustaqil o‘qib o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: sinf va sinfdan tashqari ishlarda faol ishtiroy etish.

O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish*): o‘qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni tinglab tushuna oladi va topshiriqlarini bajaradi;

Lingvistik kompetensiya: mavzuga oid so‘zlar va iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi.

Darsning usuli: darslik bilan ishslash, suhbat, savol-javob, qayta xotirlash, izlanuvchanlik, ijodiy.

Darsning johozi: Darslik, savol yozilgan ko‘rgazmalar, pinbord doska, turli rasmlar, tarqatmalar , audio va video vositalar, bir nechta konvert.

Darsning shiori:

“Oz bo‘lsa-da o‘rganmaslik insoniylikdan emas “

Darsning rejasi:

I. Tashkiliy qism: - 3 daqiqa;

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash - 9 daqiqa;

III. Yangi mavzu bayoni: -10 daqiqa

IV. Mavzuni mustahkamlash:

1-shart: “T-chizma”ni to‘ldirish - 5 daqiqa;

2-shart: Darslik yaqin yordamchi - 6 daqiqa;

3-shart: “Ma’lumotni to‘ldiring!” - 4 daqiqa;

4-shart: Mustaqil ish: “Tabiatga sayohat” - 5 daqiqa;

Dars yakuni: - 3 daqiqa.

Dars mavzusining rejasi:


1. Subyektiv baho nima?

2. Kichraytirish qo'shimchalari.
3. Erkalash qo'shimchalari.

Darsning borishi:

O'tilganlarni so'rash: O'tilgan dars mavzusi: "Kelishik qo'shimchalari uslubiyati" hisoblanadi.

Dastlab o'quvchilarga o'zbek tilida mavjud kelishik qo'shimchalari klaster ko'rgazmasi orqali eslatib o'tiladi. Ko'rgazmada kelishik qo'shimchalarining nomlari berilgan bo'ladi. O'quvchilar esa qo'shimchalarini aytishadi.



Uyga vazifa sifatida berilgan 54-mashq bir nechta o‘quvchidan og‘zaki tarzda so‘rab olinadi. So‘ngra “Ma’nodoshini toping!” usulidan foydalangan holda o‘quvchilar bilimi va fikrlash qobiliyati sinovdan o‘tkaziladi. Bunda o‘quvchilar kelishik qo‘sishimchalarining ko‘makchilar bilan ma’nodoshligini aniqlaydilar hamda misollar keltiradilar. Masalan: telefonda berilgan buyurtma – telefon **orqali** berilgan buyurtma.

Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzuni bayon etishda o‘qituvchi o‘quvchilarining hayotiy tajribasidan samarali foydalanishi zarur. Ya’ni bunda ularga quyidagi matn na’munasi audio shakli bilan birgalikda taqdim etiladi:

“...Oh, hozir **Hayitvoy, Dilijon** o‘rtoqlarim bo‘lganda ko‘rsatib rosa maqtanardim. Ular har yoqqa ko‘chib ketishdi. Endi topolmayman ularni. **Buvijonim**, asalim, sochingizning hidini sog‘ingandim, baxmal to‘ningizni sog‘ingandim. Ana shu menga qarab turgan ko‘zlariningizniyam sog‘inuvdim. Men o‘paman, **buvijonim** o‘padi. Hech bir-birimizga to‘ymaymiz... Qo‘llari biram yumshoqqina, yuzlari biram isiqqina, hidlari biram yoqimligina...”³⁹

O‘quvchilarga berilgan tarqatmada esa ajratib ko‘rsatilgan qo‘sishimchalar mavjud bo‘lmaydi. O‘quvchilar matnning audio shaklini eshitganlaridan so‘ng ushbu qo‘sishimchalar qo‘shayotgan ma’noni anglab yetadilar va o‘qituvchi yordamida quyidagi qoida keltirib chiqariladi:

Tilimizda *-cha, -choq, -gina,-loq, -jon, -xon, -toy* kabi bir qancha qo‘sishimchalar mavjud bo‘lib, ular subyektiv baho shakllari deb umumlashtiriladi. Ular kichraytirish-erkalash qo‘sishimchalari nomi bilan ham ataladi. Bu qo‘sishimchalar otlar va sifatlarga qo‘silib, shu so‘zlar ifodalagan narsa yoki tushunchaga so‘zlovchi (yozuvchi) ning subyektiv munosabatini bildiradi, ya’ni bu so‘zlarda ijobiy yoki salbiy uslubiy bo‘yoqni yuzaga keltiradi. Bunday

³⁹ Jannati odamlar.Ertak-roman.X.To‘xtaboyev.-T.:”Yangi asr avlod”,2013.

qo'shimchali so'zlar ko'proq so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda kuzatiladi, ilmiy va rasmiy uslublarda esa ular juda nofaol, kam qo'llanadi.⁴⁰

Mavzuni mustahkamlash:

Mavzuni mustahkamlashda darslik yaqindan yordam beradi. Darslikning 55-mashqi quyidagicha:

"Kichraytirish shakllarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Yigitcha, tushmaysizmi? – dedi kimdir orqadan. (O'. Umarbekov).
2. Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi.(A.Qahhor)
3. O'yinga mashg'ul bo'lib o'tirgan olti-yetti yashar qizaloq soy yoqalab kelayotgan kishiga ko'zi tushib, shodon qiyqiradi: - Dadajon! Dadajon! (Erkin A'zam)
4. Iya, biz uning bobosi tengi bo'lsak, bu tirrancha qizaloq ermak qilyaptimi? (Said Ahmad)
5. Mayli, kelib o'tirsin – mana hovli, mana joy! Lekin manovi yetimchalarining sudrab men qay go'rga boray, ayt?! (Erkin A'zam)⁴¹

Mashqni quyidagi usulda amalga oshiriladi:

Yigitcha	qizaloq
Oygina	yetimcha
Kundosh	Dadajon

⁴⁰ Ona tili: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. N.M.Mahmudov va boshqalar-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2017.Birinchi nashr.

⁴¹ Ona tili: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. N.M.Mahmudov va boshqalar-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2017.Birinchi nashr.

Bunda o‘quvchilar jadvalda berilgan so‘zlar orasidan mavzuga oid qo‘sishimcha ishtirok etmaganini aniqlaydilar. Bunda o‘quvchilarining kichraytirish-erkalash qo‘sishimchasi –*gina* bilan yuklama hisoblanmish –*gina* qo‘sishimchasini farqlay olganliklari yoki aksi ekanligi aniqlanadi.

57-mashq: Erkalash shakllarining ijobiy yoki salbiy bahoda namoyon bo‘layotganini aniqlang.

1. Ha, endi, buvingnikiga ko‘chib ketadigan bo‘lsak, uyni tashlab ketamizmi, orqalab opketamiz-da, o‘g‘iltoy! (Sh.Boshbekov)
2. Gird-atrofini tomoshapechak qurshagan, qo‘g‘irchoqdek yasatig‘liq ayvonchasida bu dunyoning g‘am-u g‘urbatlaridan yiroq, mangu navqiron opaxonimiz desakmikan, onaxonimiz deakmikan (garchi buvimiz tengi bo‘lsa-da!) kaftlarini juftlashtirgancha, barmoqlarini qisirlatib, muqom bilan o‘yin tushmoqda. (E.A’zam)
3. Onaxonimiz ta’rifga sig‘maydigan ayol edilar, shuncha odam bekorga kelgani yo‘q! (E.A’zam)
4. Opaxon, xo‘jayiningiz u yoqda gullab qo‘yibdilar: shu ustun tagida xazina bormish. (T.Malik)
5. Sen shunaqa mo‘mintoyliging bilan hammani yengib kelgansan. Bu qiliq menga o‘tmaydi, bilib qo‘y (T.Malik)

Baholash: o‘quvchilar darsdagi ishtiroklariga qarab reyting asosida “5”, “4”, “3” baholar bilan baholanadilar.

Uyga vazifa: Darslikdagi 59-mashq hamda biror badiiy asardan subyekiv baho yuklovchi qo‘sishimchalar ishtirok etgan parchani topish va tahlil qilib kelish.

Xulosa

XXI asr - texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo‘ladigan hodisalar uni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko‘rilmagan kashfiyotlar paydo bo‘ldi va paydo bo‘lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda.

Shu o‘rinda, bu yangiliklar xususan, turli xil gadgetlar, qurilma-yu moslamalar inson hayotining ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ulardan unumli foydalanish dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni o‘rinli deb bilamiz: «Kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq». Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o‘sib kelayotgan yoshlari hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib voyaga yetmoqlari muhim omildir.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta’lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Xususan, hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kuchaygan. Ta’limning samaradorligini oshirish o‘z o‘rnida yoshlarning ta’lim markazida bo‘lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu

yo‘lda ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallagan kadrlar talab etilishi bilan bir qatorda ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan mutaxassislar zarur. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish keng yo‘lga qo‘yilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni xam o‘zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik vazifasini bajaradi.

«Eshitganimni yoddan chiqaraman, ko‘rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman», - degan edi buyuk faylasuf Konfutsiy. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘zları tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan yoshlar, jamiyatimiz uchun yetuk shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanilishiga oid bilimlar, tajriba o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Taklifim: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida masalaga doir o‘qitishning ko‘proq badiiy asrlar bilan bog‘liq holda olib borilishi, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarga asosiy urg‘u berilishi yo‘lga qo‘yilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

UMUMIY XULOSALAR VA METODIK TAVSIYALAR

Ta’lim bosqichlarida so‘z turkumi va morfologik vositalarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining, shuningdek, fan dasturi va darsliklarining tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. So‘z turkumini o‘rganish o‘zbek tilini o‘qitishning muhim qismidir. Azal-azaldan tilshunoslar va metodist olimlar ta’lim jarayonida so‘z turkumini va uning mavzularini o‘rganishga doir qator ilmiy ishlar monografiyalar yaratishgan. Morfologiya bo‘limininig tarkibiy qismlari ta’limda qator murakkabliklar keltirib chiqayotgan ham beziz emas. 2. O‘zbek adabiy tilida morfologik kategoriyanı o‘rganish keyingi davrlarda ham davom etdi. Bu yillar davomidan V.V.Reshetov, H.Sulaymonov, A.Hojiyev, N.Karimov, Sh.Raxmatullayev kabi olimlar mavzuni o‘rganishga doir ilmiy ishlar qilishdi. Ona tilini o‘qitish sohasiga salmoqli hissa qo‘shtigan M.Asqarova, A.G’ulomov, Y.Abdullaev, M.Omilxonova, K.Qosimova, H.Zahirov, A.Po‘latov, A.Mirzaev, M.Sobirova, Sh.Yusupova, N.Sattorova, T. Yusupova, T.Ziyodova, A.Bobomurodova, M.Saidov, O.Oxunjonova kabi metodist olimlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalarida uzlucksiz ta’lim tizimi bosqichlarida ona tilini o‘qitish yuzasidan yo‘l- yo‘riqlar bayon qilingan. Mazkur ishlardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo‘llanilmoqda. Jumladan, o‘zbek tili o‘qitish nazariyasi va metodikasi fanida so‘z turkumini o‘rganish masalalari metodist olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ular tomonidan yaratilgan dissertatsiyalarda, monografiyalarda, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va tavsiyalarda, maqola va tezislarda bu masalaga juda ko‘p marotaba qo‘l urilgan. Ularni o‘rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu so‘z turkumini mavzularini o‘qitish masalasiga nafaqat bugungi kunda, balki uzoq davrlardan buyon dolzarb mavzu sifatida e’tibor qaratilib kelinayotganligini guvohi bo‘lamiz.

3. Umumta’lim maktablarining “Ona tili” o‘quv dasturidan o‘rin olgan “Olmosh” so‘z turkumi mavzulari va ular uchun ajratilgan o‘quv soatlari o‘quvchilarga bu bo‘lim yuzasidan yetarlicha bilim berishga, ularda shu mavzlar bo‘yich ko‘nikma va malakalar hosil qilishga imkon beradi. Mavzuga oid termin-tushunchalar, o‘qitilishi lozim bo‘lgan grammatik qoidalar, ulardagi uzviylik ilmiylik o‘quvchida bu so‘z turkumi yuzasidan yetarlicha bilim olishga, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga mo‘ljallangan, o‘quvchining og’zaki va yozma nutqini o‘stirishga, bog’lanishli nutqini shakllantirishga, ularning so‘z boyligini oshirishga, so‘z va uning ma’nolari ustida ishlash ko‘nikmalarini va sintaktik qurilmalar ustida ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan uzviy tizim sifatida bayon qilingan. Ammo o‘quv soatlarini biroz ko‘paytirilganda yaxshi bo‘lardi. Chunki olmosh boshqa so‘z turkumlariga qaraganda ancha murakkabroq mavzu deb o‘ylayman.

4. Akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv dasturini umumta’lim maktablarining “Ona tili” o‘quv dasturining uzviy davomi deb aytish mumkin, chunki mакtab dasturida olmosh haqida sof nazariy leksik bilimlar berilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, akademik litseylarning bu o‘quv dasturida olmoshning uslubiy xususiyatlariga e’tibor berish ko‘zda tutilgan.

5. Xulosa shuki, umumta’lim maktablarining “Ona tili” va akademik litseylarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv dasturlari darsliklari “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” aks ettirilgan ta’limning uzviyligi va uzlusizligi, nazariya va amaliyotning o‘zaro aloqadorligi tamoyili talablariga mos tarzda yaratilgan. Faqat e’tiroz sifatida shuni aytish mumkinki, mакtab darsligida faqatgina 7-sinf darsligida emas boshqa sinf darsligida ham kiritilishi, akademik litsey uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida asosiy e’tibor olmoshning uslubiy xususiyatlariga va ularni mustahlash uchun berilgan mashq va topshiriqlar uchun tanlangan matnlarni esa hajm jihatidan biroz kichikroq hamda unda mavzuga aloqador termin-tushunchalarning nisbatan ko‘pligiga e’tiborni qaratish zarur.

6. Olmosh so‘z turkumini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga interfaol usullarda dars bergen ma’qulroq. Chunki bu usul ularning darsga nisbatan

qiziqishini ortiradi.Darsni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida avval mavzuni og’zaki tarzda ozroq bayon qilib, har bir qoidaga alohida misollar berilib ketilsa yaxshi natija beradi deb o‘layman.

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-inglizcha lug’ati

- 1.Adabiy til – literary language
- 2.Olmosh-pronoun
- 3.Kishilik olmoshlari-personal pronouns
- 4.O‘zlik olmoshlari-reflexive pronouns
- 5.Ko‘rsatish olmoshlari-demonstrative pronouns
- 6.So‘roq olmoshlari-interrogative pronouns
- 7.Belgilash olmoshlari-definite pronouns
- 8.Bo‘lishsizlik olmoshlari-negative pronouns
- 9.Gumon olmoshlari-indefinite pronouns
- 10.Ahamiyatli – important, considerable
- 11.Amaliy – practical, applied
- 12.Amaliy ish – practical work
- 13.An’anaviy – traditional
- 14.An’anaviylik – tradional nature
- 15.Aqliy faoliyat – mental activities
- 16.Asosiy – main, chief, principal, fundamental
- 17.Axborot – report, information
- 18.Dars – lesson, class, occupation
- 19.Darslik – textbook, manual, primer
- 20.Darsxona (sinf, auditoriya) – lecture-hall, lecture-room, classroom
- 21.Dastur – reversing rod
- 22.Didaktika – didactics
- 23.Dolzarb – peak, culmination
- 24.Erkin – free
- 25.Eshituvchi – listener
- 26.Fan – science, subject
- 27.Izohli lug’at – dictionary
- 28.Faol – active
- 29.Faoliyat – activity

- 30.Faollik – activity
- 31.Fikr – idea, thought, opinion
- 32.Filologiya – philology
- 33.Foydalanish – use, using, useful
- 34.Ijobiy – positive, favourable
- 35.Ijodkorlik – creation
- 36.Ilmiy – scientific
- 37.Iqtidorli – powerful, mighty
- 38.Izoh bermoq – explain
- 39.Izchil – successive, consecutive
- 40.Jalb etmoq – attract smb's attention
- 41.Joriy etmoq – put into practice, introduce
- 42.Jurnal – journal, periodical
- 43.Kelajak avlod – future the next generation
- 44.Kitob – book
- 45.Kompyuter – computer
- 46.Ko‘rgazma – exhibition
- 47.Ko‘rsatmali – graphic, obvious
- 48.Malakali – experienced, skilled
- 49.Maqsadga muvofiq – expedient
- 50.Mavzu – subject, theme
- 51.Mashg’ulot – occupation, studies
- 52.Metod – method, methodology
- 53.Metodik – systematic, methodologic
- 54.Metodika – method, methodology
- 55.Metodist – methodologist
- 56.Muallim (o‘qituvchi) – teacher
- 57.Mustaqil – self-dependent
- 58.Og’zaki – oral, verbal
- 59.Pedagog – teacher, educator

- 60.Pedagogik – pedagogical, educational
- 61.Psixologik – psychology
- 62.Qiziqarli – interesting, interestingly
- 63.Rivojlantirish – fostering, developing
- 64.Samarali – fruitful, productive, effective
- 65.Sezgi – feeling, sense
- 66.Ilmiy tadqiqot – research
- 67.Tahlil qilmoq – analyze
- 68.Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer
- 69.Tarbiya – education, upbringing, care
- 70.Tarbiyalamoq – bring up, educate
- 71.Tatbiq etmoq – apply, employ, use
- 72.Ta’lim – education, teaching
- 73.Texnologiya – technology
- 74.Til – tongue, language
- 75.Umumta’lim – public education
- 76.Usul – method, way
- 77.Uzluksiz – uninterrupted, continuous
- 78.Uzviy – organic
- 79.Vosita – instrument, means, ways, methods
- 80.Xulosa – conclusion, summary
- 81.Xususiyat – peculiarity, uniqueness
- 82.Zamonaviy – contemporary, modern, current
- 83.Zarur – necessary, urgency
- 84.O‘qimoq – study
- 85.O‘qitish – teaching
- 86.O‘qitmoq – teach
- 87.O‘quvchi – pupil
- 88.O‘rganmoq – learn, study, master
- 89.O‘rgatish – instructing, teaching

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Меъёрий-хуқуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Меъёрий-хуқуқий ва услубий хужжатлар тўплами. – Тошкент: “Истиқлол” нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv darsturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili(5-9-sinflar). – Т.: 2010.
4. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2000.
5. Сафаров О. Болаларни эркаловчи қўшиқ. – Т.: Фан, 1983. – Б. 3-65.
6. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 21-140.
7. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Т.: Фан, 1980.
8. Абдураҳмонов F., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
9. Ahmedova H. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Т.: “Tafakkur”, 2012.
10. Bakalavrlik bitiruv malakaviy ishini bajarish, rasmiylashtirish va himoya qilish. Tuzuvchilar Jumaboyev A., Tuxvatullin F.X., Yakubov A.A. – Samarqand: SamDU, 2011.
11. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – Т.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2009.

12. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962, 1978.
13. Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: “Akademnashr”, 2012.
14. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – T.: 2013.
15. Rahmonov N., SodiqovQ. O‘zbek tili tarixi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
16. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2000-2012-yillar.
17. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1992. – 399 б.
18. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
19. To‘xliyev B., Yusupova Sh., Ziyodova T., Oxunjonova O., Jumashev D. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
20. Uzvylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv darsturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili(5-9-sinflar). – T.: 2010.
21. Шоадураҳмонов Ш., М.Аскарова Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм, – Т.:, Ўқитувчи, 1980.
22. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Т.:, ФАН, 1984.
23. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. –Т.:, ФАН, 1975.
24. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 2000-2014-yillar.
25. Ғуломов А. Она тили ўқитиш жараёнида активлик принципини амалга оширишнинг назарий асослари. – Т.: Фан, 1989

26. Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
27. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Т.: Ўқитувчи, 1995
28. Ғуломов Ё., Расулов И., Рустамов Ҳ., Мирзаахмедов Б. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1975.
29. Ғуломов А., Қодиров М. Она тили ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2001.
30. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т.: ФАН, 1957.
31. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-китоб, – Т.: ФАН, 1966.
32. www.samdu.uz/files/web/index.htm
33. www.ziyouz.com.kutubxonasi. M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. I tom.
- 34.“Innovatsion texnologiyalar o’quv jarayonida” M.T.Eshmuratov.
Toshkent-2011.
- 35.“O’qitishning yangi pedagogik texnologiyalari” A.H. Nazirov.
Toshkent-2008
36. “Pedagogik texnologiya asoslari” Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika kafedrasi
37. www.google.uz va www.ziyouz.com internet saytlari.